

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**PEDAGOGIKA FAKULTETI**

**BOSHLANG'ICH TA'LIM METODIKASI KAFEDRASI**

**Qalandarova Gulxayo Aslan qizi**

**Boshlang'ich sinf o'quvchilarini nafasat va axloqiy  
tarbiyalashda o'qish darslaridan foydalanish metodikasi**

5141600 – boshlang'ich ta'lim va tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishi bo'yicha  
bakalavr akademik darajasini olish uchun yozilgan

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar:**

**dots. Rabbanaqulov X.**

Bitiruv malakaviy ish boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasida bajarildi. Kafedraning 2014-yil  
«\_\_\_» maydagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi (\_\_\_\_ - sonli bayonnoma).

**Kafedra mudiri:**

**dots. Shodiyev F.T.**

Bitiruv malakaviy ishi YADAKning 2014-yil «\_\_\_» iyundagi majlisida himoya qilindi va  
«\_\_\_\_\_» ballga baholandi (\_\_\_\_ - sonli bayonnoma).

**YADAK raisi:**

**p.f.d., prof. Muslimov N.**

**A'zolari:**

---

---

---

**Samarqand - 2014**

## Kirish

### Bitiruv malakaviy ishining umumiy tavsifi

**Mavzuning dolzarbligi.** O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng umuman yangi hayot va yangi jamiyat barpo etala boshlandi. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining poydevori barpo etilishga kirishildi.

Mustaqil O'zbekiston hukumatining xalqparvar siyosati natijasida g'oyaviy va siyosat sohasida kun sayin jiddiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Jamiyatimizda moddiy-ma'naviy rivojlanishining yangi omillari yaratilmoqda.

Mamlakatimizning barcha sohalarida dekmokratiyalashtirish va insonparvarlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Xalqimiz oldiga madaniy jihatdan yangilash va o'z-o'zini anglashdan iborat kabi muhim vazifalar qo'yilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisida (1997-yil 29-avgust) «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi.

Shuningdek, milliy g'oya va milliy istiqlol mafkurasi konsepsiyasi yaratildi. Bu dasturdagi hujjatlar ta'lim sohasida muhim burilish yasadi. Unda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari, ta'lim tizimi, uning boshqaruv tarkibi, o'qituvchi-pedagoglarning huquq va burchlari aniq belgilab berildi.

Ta'lim sohasidagi bosh maqsad demokratik, insonparvarlik tamoyillarini qaror toptirish, xalq milliy an'analari asosida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash. Mamlakatimiz rahbari I.A.Karimov Oliy Majlisning IX sessiyasidaqilgan ma'ruzasida: "O'sib kelayotgan yosh avlodni kamol toptirish, jamiyatimizning fidoiy insonlarni yetuk va bilimli qilib tarbiyalash, har tomonlama komil insonni shakllantirish bugungi kunda ta'lim tizimining kechiktirib bo'lmaydigan masalalardan biri hisoblanadi"<sup>1</sup> deb ta'kidlagan edi. Siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy sohalarda ulkan o'zgarishlar amalga oshirildi.

---

<sup>1</sup> Karimov I. A. "Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori". -T., "Sharq", 1997-y., 32 b.

Davlatimiz dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlar qatoridan mustahkam o'rin egallay boshladi.

XXI asrning dastlabki yillaridanoq ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot barpo etish o'zbekiston xalqining ma'naviy taraqqiyot yo'lidgi bosh g'oyaga aylandi.

O'zbekiston Respublikasi davlatining asosiy maqsadi - yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qilish to'g'risidagi qarorida milliy qadriyatlar asosida o'quvchi shaxsida ma'naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalashga, o'z oilasiga va xalqiga sodiq fuqaroni shakllantirishga alohida ahamiyat berishdan iborat. Ayniqsa o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy istiqlol ruhida tarbiyalash muhim masalalardan biriga aylandi. Bu vazifani asosan oila va xalq ta'lim tizimidagi muassasalar bajara oladi. Chunki farzand dunyoga kelgandan e'tiboran oldin oilad tarbiya topsa, maktabda bilim oladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida olib borilayotgan o'qish darslari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini nafosat va axloqiy tarbiyalash masalasiga ajdodlarimiz ham befarq qarashmagan, ya'ni yosh avlodni nafosat va axloqan tarbiyalash qadimiy bo'lib, uning zaminida jamiyat, el-yurt, mahalla, oila va ota-ona turgan.

Ayni paytda nafosat va axloqiy tarbiyaga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki, yurtdoshlarimizning chet ellarga borib o'qishi, ishlashi, odam savdosining avj olishi, yoshlarimizning internet tarmog'idan bemalol foydalanishi, "ommaviy madaniyat"ning kirib kelishi ba'zi bir yoshlarimizni axloqiy nopokliklarga qo'l urishiga sabab bo'lmoqda. Shu no'qtai nazardan qaralganda ushbu tadqiqotning mavzusi dolzarb muammolardan biriga bag'ishlanganligi o'z-o'zidan ko'rinib turibdi.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi.** Har qanday vazifaning bajarilishida o'zining ko'zlangan maqsadi bo'ladi. Ushbu mavzuni yoritishdan ko'zlangan maqsad - o'qish darslari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini nafosat va axloqiy

tarbiyalashning mazmuni, shakli va usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etishdan iborat.

**Bitiruv malakaviy ishining vazifalari.** Har qanday masalani yoki ishni bajarish uchun ma'lum bir reja tuziladi va shu reja asosida amalga oshiriladi.

Mazkur bitiruv malakaviy ishimizning oldiga qo'yilgan maqsadiga erishish uchun quyidagi vazifalarni reja asosida bajarishga asosiy e'tibor qaratildi:

- tadqiqot ishi uchun tanlangan mavzuning dolzarbligini isbotlash;
  - mazkur tadqiqotning hozirgi kunda dolzarb mavzulardan biri ekanligini hayotiy dalillar orqali isbotlash va mavzuning ilmiy-nazariy ahamiyatini asoslab berish;
  - ushbu mavzu yuzasidan olib borilayotgan tadqiqotning asosiy maqsadi va uning oldiga qo'yilgan vazifalarini aniqlash;
  - mazkur tadqiqot mavzusining oldin o'rganilganlik darajasini aniqlash va hozirgi kunda qay darajada o'rganilganligini tahlil qilish;
  - boshlang'ich sinf uchun nashr etilgan «O'qish» darsligidagi o'quv materiallari sifatida kiritilgan nafosat va axloqiy tarbiyaga oid mazularni salmog'ini aniqlash.
- Ishni bajarishdan asosiy maqsad uning oldiga qo'yilgan vazifalarni aniqlab olish va amalga oshirish:
- o'qish darslari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy tarbiyalash nafaqat dars jarayonida, balki sinfdan tashqari darslarda ham o'rni beqiyosligini aniqlash;
  - boshlang'ich sinf o'quvchilarini ertak, maqol va topishmoqlar asosida o'qish, yozish va bog'lanishli nutqini o'stirishdagi hamda tarbiyaviy tomonlarini ko'rsatib berish;
  - ishning amaliy ahamiyatini asoslash;
  - ushbu tadqiqotda bayon etilgan nazariy fikr-mulohazalarning umumiy xulosalarini amalga oshirilgan tajriba asosida yoritish;

- tadqiqotning amaliy ahamiyatini asoslab berish va hayotga tadbiq qilinish borasidagi usullarini ko'rsatib berish;

- xalq an'analarini jamitdagi o'rni va ahamiyatini ko'rsatish, kichik maktab yoshdagi bolalarni tarbiyalash borasidagi mavjud ilg'or tajribalarni o'rganish;

**Tadqiqotning tuzilish tarkibi.** Yuqorida qayd etilgan maqsad va vazifalarni hal etish uchun ushbu bitiruv malakaviy ishini quyidagi tartibda amalga oshirilishini taqozo etadi.

1. Kirish

2. I bob. Boshlang'iya sinf o'quvchilarini nafosat va axloqiy tarbiyalashda ona tili darsdalarining o'rni.

3. II bob. Milliy an'nalardan foydalanib boshlang'ich sinf o'quvchilarini nafosat va axloqiy tarbiyalash.

4. III bob. Sinfdan va maktabdan tashqari ta'lim-tarbiya jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini nafosat va axloqiy tarbiyalash.

5. Xulosa.

**Bitiruv malakaviy ishini yozishda asoslangan manba va materiallar.** Ushbu bitiruv malakaviy ishining mavzusini yoritish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari, O'zbekiston Respublikasi hukumatining me'yoriy hujjatlari, darslik va o'quv qo'llanmalari, mahalliy va markaziy gazeta va jurnallardagi mavzuga oid maqolalar, O'zbekiston Respublikasi olimlarining monografik ishlari va badiiy adabiyotlardan foydalanildi.

Bundan tashqari, mazkur tadqiqotning yoritilishida "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi", "Davlat ta'lim standartlari" hamda ushbu mavzuga oid ilmiy-uslubiy maqola va adabiyotlar, o'quv qo'llanma va darsliklar, Samarqand shahridagi Xalq ta'limi bo'limiga qarashli 43-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining 2-sinfida olib borilgan tajribalar, ilg'or va tajribali o'qituvchilarning ko'rsatma va maslahatlaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning amaliy ahamiyati.** Ushbu bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati hozirgi vaqtda o'ta muhim hisoblanadi. Chunki bu ishdan o'rta maktablarning boshlang'ich sinf o'qituvchilari, oliy o'quv yurtlarining talabalari foydalanishlari mumkin.

Ushbu kunda yosh avlod qalbiga nafosat va axloqiy tarbiyani singdirish, ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida muntazam ravishda targ'ibot qilib borish muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni amalga oshirish yo'llaridan biri bu ta'lim-tarbiya jarayonidir. Ushbu jarayonni uzluksiz ravishda amalga oshirishda boshlang'ich sinf o'quvchilarini nafosat va axloqiy tarbiyalashda, ya'ni go'zal tabiatimizni sevishtga, vatanimizning xilma-xilligi, uning so'lim manzalarinidan, tabiat ajoyiboti va go'zalliklaridan zavqlanishga, ularni ko'z qorachig'idek asrash va ko'paytirishga, doimo go'zallik shaydosi bo'lib yetishishida nafaqat axloqan, balki ma'naviy yetuk inson qilib tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Nafosat tarbiyasi va axloqiy tarbiyani yosh avlod ongiga singdirishda nafaqat o'qish darslari, balki «Atrofimizdagi olam», «Tabiatshunoslik», «Mehnat ta'limi», «Tarbiyaviy san'at» fanlari orqali ham beriladigan ta'lim-tarbiya dolzarb masala hisoblanadi.

**Tadqiqotning muhokamasi.** Mazkur bitiruv malakaviy ishining dastlabki muhokamasi Alisher Navoiy nomidagi Samarqand Davlat universiteti Pedagogika fakulteti «Boshlang'ich ta'lim metodikasi» kafedrasida muhokama qilindi va himoya uchun tavsiya etildi.

**Tadqiqotning tuzilishi.** Ushbu bitiruv malakaviy ishi «Kirish», uch bob, «Xulosa» va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan.

**Bitiruv malakaviy ishining predmeti.** Mazkur tadqiqotning predmeti sifatida boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qish darslari orqali nafosat va axloqiy tarbiyalashning zamonaviy usullaridan foydalanish metodikasini ishlab chiqish maqsadida Samarqand shahridagi 43-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchilarining fikrlari va mulohazalari zamon talablari

asosida o'z ifodasini topgan.

**Bitiruv malakaviy ishining obykti.** Mazkur tadqiqotning obykti sifatida Samarqand shahridagi 43-umumiy o'rta ta'lim maktabining 2-sinfida o'tkazilgan o'qish darslari jarayonidan foydalanildi.

**Bitiruv malakaviy ishining farazi.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qish darslari orqali nafosat va axloqiy tarbiyalashning zamonaviy usullarini ishlab chiqish va ular asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini barkamol avlod qilib tarbiyalashga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish ushbu kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi, ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qish darslari orqali nafosat va axloqiy tarbiyalash maktab o'qituvchilari va tarbiyachilari oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. O'qish darslari jarayonida ushbu muammoni amalga oshirilishi quyidagi masalalarni bajarish orqali ta'minlanadi:

- o'qish darslari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini barkamol avlod qilib tarbiyalashda nafosat va axloqiy tarbiyadan foydalanish asosida ko'nikma va malakalar shakllantirilsa;

- boshlang'ich sinf o'qituvchilarini komil inson qilib tarbiyalash uchun nafosat va axloqiy tarbiyadan foydalanishni o'rgatish usul va yo'llari bo'yicha qo'llanma va tavsiyalar ishlab chiqilsa;

- kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'z Ona-Vataniga bo'lgan sadoqat tuyg'usi malakalarini shakllantirish usullari aniqlansa;

- o'qish darslarida Ona Vatanga sadoqat, ota-onaga hurmat, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat ramzlarini bilish va ularga itoat qilish, mehnatsevarlik tuyg'ularini shakllantiruvchi amaliy vositalar, jumladan darslarda o'zbek xalq ijodini o'rganish yuzasidan mustaqil ishlarni tashkil etish, darsdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlardan foydalanish malakalarini mustahkamlashda qo'llaniladigan vositalar ishlab chiqilsa va h.k.

Yuqorida bayon etilgan farazlarni amalga oshirishda quyidagi vazifalarni bajarish mumkin:

– o'qish darslari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini barkamol avlod qilib tarbiyalashda nafosat va axloqiy tarbiyadan foydalanish asosida ko'nikma va malakalar shakllantirish;

– boshlang'ich sinf o'qituvchilarini komil inson qilib tarbiyalash uchun nafosat va axloqiy tarbiyadan foydalanishni o'rgatish usul va yo'llari bo'yicha qo'llanma va tavsiyalar ishlab chiqish;

– kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'z Ona-Vataniga bo'lgan sadoqat tuyg'usi malakalarini shakllantirish usullarini aniqlash;

– o'qish darslarida Ona Vatanga sadoqat, ota-onaga hurmat, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Davlat ramzlarini bilish va ularga itoat qilish, mehnatsevarlik tuyg'ularini shakllantiruvchi amaliy vositalar, jumladan darslarda o'zbek xalq ijodini o'rganish yuzasidan mustaqil ishlarni tashkil etish, darsdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlardan foydalanish malakalarini mustahkamlashda qo'llaniladigan vositalar ishlab chiqish;

– mavzuga oid tadbirlar, mashg'ulotlar, ishlanmalarini yaratish, olingan natijalarni umumlashtirish va h.k.

**Bitiruv malakaviy ishida qo'llanilgan metod va usullar.** Ushbu malakaviy bitiruv ishini yoritilishida quyidagi metod va usullardan foydalanildi:

Pedagogik kuzatuv metodi.

Qiyosiy va nazariy taqqoslash metodi.

Suhbat.

An'anaviy tavsif uslubi.

Mavzuga oid pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish.

**Bitiruv malakaviy ishining metodologik asoslarini** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning ta'lim-tarbiyaga oid asarlari va ularda bildirilgan fikrlari; Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasining ta'lim-tarbiya to'g'risidagi Qonun va Qarorlari; «Ta'lim to'g'risidagi» Qonun; «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»; Uzluksiz boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi;

«Boshlang'ich ta'lim to'g'risidagi talablar»; DTS; «Maktab ta'limi to'g'risidagi Nizom va Konsepsiya» tashkil etadi.

**Bitiruv malakaviy ishining bazasi.** Tadqiqotning bazasi sifatida Samarqand shahridagi Xalq ta'limi bo'limiga qarashli 43-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining 2-sinfi tayanch baza vazifasini o'tadi.

**Malakaviy bitiruv ishning tarkibiy tuzilishi.** Mazkur malakaviy bitiruv ishi quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topgan:

“Kirish” qismi. Ushbu qismda mavzuning dolzarbligi, maqsadi, vazifalari, tadqiqot predmeti, tadqiqot obyekti, tadqiqot farazi, qo'llanilgan metod va usullar, metodologik asoslari, tadqiqot bazasi, foydalangan materiallar, ilmiy yangiligi, amaliy ahamiyati, mundarijasi, tarkibiy tuzilishi, tadqiqotning muhokamasi bayon etilgan.

I bob “Boshlang'ich sinf o'quvchilarni nafosat va axloqiy tarbiyalashda o'qish darslaridan foydalanish yo'llari” deb nomlangan bo'lib, unda boshlang'ich sinf o'quvchilarni nafosat va axloqiy tarbiyalashda o'qish darslaridan foydalanish yo'llari haqida ma'lumotlar berilgan, ularning o'ziga xos xarakter va xususiyatlari to'g'risida ayrim tushunchalar keltirilgan.

II bob “Milliy an'analardan foydalanib boshlang'ich sinf o'quvchilarini nafosat va axloqiy tarbiyalash” deb nomlangan. Bu bobda boshlang'ich sinf o'quvchilarini nafosat va axloqiy tarbiyalashda o'zbek xalqining milliy an'ana va udumlaridan foydalanish yuzasidan olib borilgan tajribalardan namunalar bayon etilgan.

III bob “Sinf dan va maktabdan tashqari ta'lim-tariya jarayonida boshlag'inch sinf o'quvchilarini nafosat va axloqiy tarbiyalash” muammolariga bag'ishlangan bo'lib, bu yerda sinfdan va maktabdan tashqari ta'lim-tariya jarayonigi tadbirlardan ba'zi birlari keltirilgan.

Ishning «Xulosa» qismida uchta bobda bayon etilgan nazariy va amaliy fikrlarga umumiy xulosalar chiqarilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati alfavit tartibida berilgan.

**Bitiruv malakaviy ishining mundariyasi.** Ushbu bitiruv malakaviy ishining mundariyasi quyidagi qismlardan iborat:

|                                                                                                                                      |    |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Kirish.....                                                                                                                          | 3  |
| I bob. Boshlang'ich sinf o'quvchilarni nafosat va axloqiy tarbiyalashda o'qish darslaridan foydalanish .....                         | 12 |
| 1-§. Nafosat va axloqiy tarbiyaning yosh avlod ongiga singdirish yo'llari.....                                                       | 12 |
| 2-§. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini nafosat va axloqiy tarbiyalashda ajdodlarimiz namunasi.....                                    | 16 |
| II bob. Milliy an'analardan foydalanib boshlang'ich sinf o'quvchilarini nafosat va axloqiy tarbiyalash.....                          | 23 |
| 1-§. Ajdodlarimizdan qolgan milliy an'analar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini nafosat va axloqiy tarbiyalash.....            | 23 |
| 2-§. Mustaqillik yillarida shakllangan milliy an'analar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini nafosat va axloqiy tarbiyalash..... | 28 |
| III bob. Sinfdan va maktabdan tashqari ta'lim-tariya jarayonida boshlag'inch sinf o'quvchilarini nafosat va axloqiy tarbiyalash..... | 35 |
| 1-§. Sinfdan tashqari ishlarning ma'naviy tarbiya berishdagi o'rni.....                                                              | 35 |
| 2-§. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni milliy an'analar ruhida tarbiyalash..                                                     | 35 |
| Xulosa.....                                                                                                                          | 59 |
| Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....                                                                                              | 62 |

## **I bob**

### **Boshlang'ich sinf o'quvchilarni nafosat va axloqiy tarbiyalashda o'qish darslaridan foydalanish**

#### **1-§. Nafosat va axloqiy tarbiyaning yosh avlod ongiga singdirish yo'llari**

O'qish darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini nafosat va axloqiy tarbiyalash muammolari xalq pedagogikasi sohasida ham o'z ifodasini topgan. Har bir xalqning ta'lim-tarbiyaga oid pedagogik tafakkuri insoniyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Bolalarning har biri o'z yutug'idan quvonadi, mag'lubiyatidan esa tashvishga tushadi. Ota-ona o'z navbatida farzandlarini baxtli qilisha olsa, bu ular uchun eng baxtiyor damlar hisoblanadi. Shuning uchun ham xalqimizda «Farzandlar kamoloti ota-ona kamoli» degan naql bor. Xuddi mana shu narsalar, ya'ni ota-onalarning orzu-umidi sifatida avloddan avlodga o'tib keladi.

«Men bolamni deyman, bolam bolasini deydi» - degan ibora ham bejiz emasdir. Farzand ota-ona oldidagi qarzini to'la uza olmaydi, balki bu qarzini bolalariga berib qutilishi mumkin. Shu tarzda pedagogika bola tarbiyasidagi ko'nikma va qobiliyatlarni bir avloddan ikkinchi avlodga o'tkazishni ifodalaydi. Bundan tashqari, tarbiyaning vositalari, usllari va metodlari ham keyingi avlodga meros tarzda o'tadi.

Pedagogik tafakkur taraqqiyotiga nazar tashlar ekanmiz, o'z mavqieyga ko'qra ko'p qirrali va ziddiyatli ekanligini aniqlab yetamiz. Zotan, har bir avlod axloqiy tarbiyalash zarurati tariqasida qabul qiladi va shu bilan birga muayyan tarzda u yoki bu tomonini o'zi hal qiladi.

O'quvchilarda ma'naviy axloq mavjudligi uzluksiz davom etayotgan o'z holicha uning zamonaviy ahamiyatini boshlab bermaydi. Bilimlarning yashashga qodir ekanligini avlodlar tomonidan qanday qilishgagina bog'liq. Hozirgi kunda yosh avlodni ajdodlarimiz merosi asosida nafosat va axloqiy tarbiyaning amaldagilaridan foydalanayotganimizning boisi ular faqat madaniy meros bo'lganligi uchungina emas, balki istiqlol manfaatlariga xizmat qilayotganligi

uchun ham o'rganamiz, keng targ'ib etishimiz, ularning ijtimoi-tarbiyaviy rolini ko'rsatib berishimiz kerak.

Xalq pedagogikasini atroflicha o'rganish, uni bolalarni ma'naviy-axloqiy shakllantirishda, ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Undan samarali foydalanish, kelajakda oilalarda yaxshi yutuqlarga erishayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Xalqimizda bolalar bilan bog'liq bo'lgan juda ko'plab yaxshi ibratli bilimlar mavjud. Xalq pedagogikasi bolalarga mehr-shafqat qilish, ularni sevishtirish, parvarish qilish, ta'lim-tarbiya berish, ehtiyotlash kabi ijobiy qarashlarni targ'ib qilib kelgan. Yoshlarda vatanparvarlik his-tuyg'ularini shakllantirish va rivojlantirishda ta'lim-tarbiyaning oiladagi o'рни ham kattadir. Jamiyatning, davlatning, insonning kelajagi oiladan boshlanadi. Insonda yurtga, Vatanga muhabbat, kelajakka ishonch va umid tuyg'ularini shakllantirish va rivojlantirishda ta'lim-tarbiyaning ahamiyati benihoya kattadir. Abdulla Avloniy bu haqda «Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo falokat, yo saodat masalasidir»<sup>1</sup> deb yozgan edi.

O'lkamiz halqlarining o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash, ma'naviy kamol toptirish imkoniyatlari bitmas tuganmasdir.

O'zbek xalqida dunyo xalqlaridan meros qilib olgan ajoyib insoniy fazilatlar, nodir urf-odatlar mavjud. Masalan, oila a'zolarining jamuljam bo'lmasa ovqat yemay turishi, oila boshlig'ini odob saqlab kutib olish, ota-onani o'rnidan turib kutib olish, ularga har doim iltifot ko'rsatish, kattalarga hurmat, kichiklarga mehr-shafqat, qarindosh-urug', qo'ni-qo'shnilarga, mahalladoshlarga, tanish-bilishlarga yordamini ayamaslik va boshqalar bunga misol bo'la oladi. O'zidan kattalarni, birinchi navbatda, keksa bobolar, nuroniy onalarni hurmat qilish, e'zozlash, ular uchun qo'lidan kelgan yordamini ayamaslik o'zbek xalqining

---

<sup>1</sup>Avloniy A. "Turkiy guliston yoxud axloq", - T. "Me'ros", 1993, 210 b.

an'anaviy udumi bo'lib, u o'zbek oilasidagi yoshlikdan bolalar ongiga, qon-qoniga, vujud-vujudiga singib ketgan fazilatdir.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida odob-axloq masalalariga katta e'tibor berilgan. Xususan, farzandlarimizning jamiyat, oila hamda ota-onalari oldidagi insoniy burchlari va mas'uliyatlari nimalardan iboratligi to'g'risida milliy qadriyatlarimizdagi asosiy g'oya va qoidalar davr talabiga binoan belgilab berilgan.

Bilimni sevisish va ardoqlash, olim-u fuzalorlarni, ustozlarni hurmat qilish, mardlik, odamiylik, kamtarlik, adolat, halollik va haqgo'ylik kabi insoniy fazilatlarni ulug'lash borasida ham boshqalar ibrat olishi mumkin bo'lgan ijoyib qadriyatlarimiz ko'p.

Bilim va zakovatning qimmatini jamiyat taraqqaiyoti va shaxs ma'naviy-axloqiy kamoloti uchun ahamiyati shu qadar kattaki, uni ta'rif qilgan bilan ado qilib bo'lmaydi. Bilim eng katta boylik ekanligi, dunyoda undan qadrliroq hech narsa yo'qligi to'g'risida qadimiy hind xalqining «Kalila va Dimna», Nizomul Mulkining «Siyosatnoma», Nosir Xisravning «Saodatnoma», «Ro'shnoma», Yusuf Xos Xojibning «Qutadg'u bilig'i», Ahmad Yugnakiyning «Hibatul haqoyiq», Ahmad Yassaviyning «Devoni hikmat», Alisher Navoiyning «Xamsa» kabi jahon olimlarining e'tiborini o'ziga tortgan mashhur asarlarida bir-biridan muhim, bir-biridan sermazmun fikrlar bayon etilgan.

Bizning ilm-fanimizda madaniyatimiz va tariximizda insonni ilm asoslarini bilib olishga da'vat etmagan, bilimning hosiyati haqida kuyib-yonib bayon etmagan shoiru-yozuvchi, olim-u-fuzalolar bo'lmagan desak mubolog'a bo'lmaydi.

«Xalqning madaniy qadriyatlari, ma'naviy me'rosi ming yillar mobaynida sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan. O'zoq davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay O'zbekiston xalqi avloddan-

avlodga o'tib kelgan, o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarni hamda o'ziga xos an'analarni saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi»<sup>1</sup>.

Axloqiy tarbiya jarayonini o'rganar ekanmiz, u juda qadimiy jarayon ekanligini, insoniyat butun hayoti davomida tarbiya bilan shug'ullanganligiga ishonch hosil qilamiz.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin, ta'lim tarbiya sohasida milliy odob-axloqni qayta tiklash borasida milliy urf-odatlar, milliy qadriyatlarni yanada rivojlantirish xususida juda keskin va buyuk burulishlar ko'zda tutilgan va amalga oshirilib kelinmoqda. Ayniqsa «O'zbekiston kelajagi buyuk davlat» degan shiorning yuksak ko'tarilishi davlatimizning har sohasida amalga oshirilayotgan islohatlar mustahkamlanishi zarurligi va yo'llari belgilab berildi.

Davlatning bugungi kundagi taraqqiyoti, kelajagi albatta yoshlarni chuqur bilimli va pokiza axloq-odoblilik qilib tarbiyalash bilan bevosita bog'liq. Milliy qadriyatlar xalq o'tmishiga, buguni va kelajagiga, fan va madaniyat taraqqiyotiga milliy axloq-odobga nisbatan yuksak hurmat bilan belgilanadi.

Qadimgi ajdodlarimiz yaratgan 3000 yillik tarixga ega «Avesto» kitobi dunyodagi eng qadimiy noyob bilimlar xazinasidir. Xatto hozirgi o'zbek xalqi yashab turgan zaminda zardo'shtiylik dini keng yoyilgan davrida ham nekbin pedagogik mafkura hukm surgan. Ta'lim-tarbiyaning bosh maqsadi bolalarga uch sifatni singdirishdan iborat bo'lgan, bular:

Ezgu fikr. Ezgu so'z. Ezgu amal.

Ana shu uch sifat ham «Avesto»da o'z aksini topgan. Kishilik tarixida islom ta'limotining tarbiya haqidagi g'oyalarining shakllanishida ahamiyati cheksizdir. Qur'oni Kapim va Xadisi Shariflarda musulmon ahlining dunyoqarashi, falsafasi, ma'naviyati, axloqi, e'tiqodi, har tomonlama barkamolligi kabi insoniy sifatlarni, shakllantirish yo'llari bayon qilingan.

---

<sup>1</sup> I.Karimov. «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari». -T.: «O'zbekiston», 1997 yil, 137 bet.

## **2-§. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini nafosat va axloqiy tarbiyalashda ajdodlarimiz namunasi**

Tarbiya haqidagi g'oyalarning shakllanishida Imom Buxoriy, Iso at-Termiziy, Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos Xojib, Yassaviy, Naqshbandiy, Alisher Navoiy, Amir Temur, Bexbudiy, Avloniy va boshqa buyuk ajdodlarimizning xizmatlari kattadir.

Milliy urf-odatlar, an'ana, umuminsoniy qadriyatlarni o'z asarlarida yoritgan olim-u-fuzalolar Muxammad ibn Muso al Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Umar Az-Zamaxshariy, Mahmud Qoshg'ariylarning muborak nomlarini eslashning o'zi kifoya qiladi. XII asrning iste'dodli shoir va donishmand murabbiyi Ahmad Yugnakiyning «Hibatul haqoyiq» (“Haqiqatlar armug'oni”) asarida ilmi bilan bilimsizni, olim bilan johilni qiyoslab bayon etgan qo'yidagi fikri bunga misol bo'ladi: «Bilim tug'risida so'zlamodaman, so'zimni yaxshi tingla, bilimdon kishilarga o'zingni bog'la. Bilim bilan baxt saodat yo'llari o'rganiladi, bilim egallab, saodat yo'lini top. Bilimli kishi qimmatli oltindir».

Yusuf Xos Xojibning fikricha, zakovat qorong'u tundagi ma'shal kabidir, bilim esa nur tarqatuvchi yorug'likdir. Kimda zakovat bo'lsa, o'sha asl odam bo'lagi. Kimda bilim bo'lsa, u martabaga erishadi. Odam zakovati tufayli asldir, bilim gavhar kabi bir yerda to'planib turadi, u zakovatning konidir, bir yerda jamlanib turadi. Mushk-anbarni yashirsang, uni hidi oshkora qiladi, bilimni yashirsang, uni tiling oshkora qiladi. Bilim o'z sohibini qoshshoq qilmaydigan bitmas-tuganmas boylikdir, o'g'ri va qalloblar uni hech qachon o'g'irlab ololmaydilar.

Mustaqillikning ma'naviy zaminlarini mustahkamlashda diniy g'oyalar va qadriyatlardan, ayniqsa odob-axloq borasida islom dini ta'limotidan oqilona ijodiy foydalanish maqsadga molikdir. Islom dinida nafaqat milliy, balki umuminsoniy ahamiyatga ega bo'lgan, hozirgi paytda ham o'z qimmatini to'la saqlab kelayotgan eng muhim axloqiy qoidadir, falsafiy fikr-mulohazalar behisobdir. Islom

odamlarning dinidan, millatidan qa'tiy nazar o'zaro hurmat-izzatda bo'lishga, bir-birini moddiy-ma'naviy va ruhiy qo'llab-qo'vvatlashga undaydi.

Islom dinida birovlarining haqiga ko'z olaytirish, ichkilikbozlik, giyohvandlik, o'g'rilik kabi qabih ishlar bilan shug'ullanish, fohishabozlik, poraxo'rlik qattiq qoralanadi. Din odamlarni to'g'ri yurish, insofli, diyonatli bo'lish, o'zidan yaxshi ish qoldirishga da'vat etadi.

Tarbiya, odob-ahloq, o'zaro do'stona munosabatlar, qarindosh, ota-ona va farzandlarning haq-huquqlari, mehr-oqibat, halollik, poklik, adolat singari insoniy qadriyatlar insonda keng tashviq qilinadi. Buning aksi bo'lgan razolat, kibr-havo, adovat, hasad, xiyonat, yolg'onchilik, fitna-hasad, zulm kabi insoniylik sha'niga dog' tushiradigan razil sifatlar esa keskin qoralanadi.

Imkoni boricha va qayerda qodir bo'lsang ilm o'rgan, ma'rifatingni ziyod qil, degan g'oya islom dinining mag'iz-mag'ziga chuqur singdirib yuborilganida. Hadisi Sharifdan olingan misollardan ko'rish mumkin: «Ilmni chin mamlakatda bo'lsa ham talab qilinglar», «Beshikdan to tobutgacha ilm o'rgan», «Ilm olish har bir musulmon va muslima uchun ham farz, ham qarz» va h.

Ma'naviy va axloqiy poklanish, iymon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat, vatanparvarlik va insonparvarlik kabi insoniy fazilatlar qanchalik avaylab-asralsa, hayotga keng joriy etilsa, insonning yaratuvchilik, bunyodkorlik faoliyati shunchalik kuchayib, takomillashib boradi. Zero, bu tabarruk madaniy qadriyatlar hozirgi davrda ham insonni iymonli va e'tiqodli, go'zal axloqli-odobli, ma'naviyat va tafakkur sohibi bo'lib yetishuvida asosiy manbadir.

Sharq xalqlarida, ayniqsa o'zbek xalqida bolajonlik sifati o'ta shakllangan. Bola ona quvonchi va er-xotinni bog'lab turuvchi rishtadir. Shu jumladan bolalar kattalarning panohi, mehr-mug'abbati va g'amxo'rligi tufaylim o'sadi, ulg'ayadi, kelajakda shaxs sifatida hayotda o'z o'rnini topadi.

O'zbek xalqi o'sha bolajonligi uchn ham o'z farzandlarini «suyanchig'im», «hayotimning quvonchi», «uyimning chirog'i» kabi so'zlar bilan erkalaydilar va o'zlari ham bundan ma'naviy oziq olishadi.

Ma'lumki, sharq mutafakkirlarining badiiy ijodi, o'z muxtasarligi, jozibadorligi, ravonligi, ohangdorligi, didaktik ahamiyatga chuqur g'oyaviy badiiyligi bilan ba'zida har bir davrdagi adolatsiz oqibatlarni fosh etish eng yaxshi insoniy fazilatlarni tarannum etish bilan insoniyat e'tiboirini o'ziga qaratib kelgan.

O'zbek xalqining yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko'p asrlar davomida qo'llagan usul va vositalari, tadbiri, o'ziga xos urf-odatlari va an'analari, tarbiya haqidagi g'oyalari, qadimiy tajribasi xalq pedagogikasida o'z ifodasini topgan.

O'zbek xalqi maktab bo'lmagan, pedagogika fan sifatida shakllanmagan davrdayoq, qabila a'zolarining bolalarda mehnatsevarlikni o'stirish, bu sohada orttirilgan tajribalari bizning davrga qadar yetib keldi va xalq pedagogikasi shaklida tarkib topdi.

Markaziy Osiyo xalqlari tarixan bir-birlari bilan mustaqil alohida bo'lganlar, quda-anda bo'lib yashaganlar, natijada ular bola tarbiyasi borasida ham boy tajribalarni bir-birlariga o'rgatishganr.

O'tmishda har bir kishi urf-odatlari orqali jamoa bilan uzviy bog'langan, jamoaning ijtimoiy vazifalarini, axloqiy qonun-qoidalarini o'rganganlar. Shu ma'noda jamiyatda mavjud bo'lgan urf-odat va an'analar har bir insonning hissiyayotiga, hatti-harakatiga butun oila turmushiga katta bir hodisa bo'lib kirgan.

Urf-odat va an'ana insonda xilma-xil kechinmalar va kayfiyatlar uyg'otadi. Odamlarning o'z-o'zini va ijtimoiy burchini anglashga shaxs sifatida shakllanishiga ham ijobiy ta'sir qiladi. Uning turmush tarzini, hayot faoliyatini belgilashda yordam beradi. O'zbek xalqidav qiz bolani go'zal, axloqli qilib

tarbiyalash oilaning muhim vazifasi hisoblangan va u afsona sifatida avloddan-avlodga o'tib kelgan.

O'zbek oilasida mavjud kundalik turmush ehtiyojiga aylangan an'analar bolalarni turli hatti-harakatl axloq-odobga o'rgatishda muhim ahamiyatga qarashlar va udumlarning tarkib topishga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Kundalik odob-axloq an'alariga ega bolalarda ma'naviy axloqiy sifatlarni tarkib topishiga yordam beradi. Bolalarning mehnat faoliyatida ishtirok etishi, mehnat ahli bilan suhbatda bo'lishi ular xarakterida mehnatsevarlik, mehnat qilish malakasini va ko'nikmasini hosil qiladi. Bu esa o'z navbatida bolaning uy-ro'zg'or, xo'jalik ishlariga nisbatan ishtiyoqini o'stiradi. Shuningdek, doimiy o'zaro aloqa esa insonparvarlik sifatlarining tarkib topishi, ota-ona oldidagi farzandlik burchini anglash kabi fazilatlarning hosil bo'lishini ta'minlaydi.

Oiladagi kundalik hayotda amal qilinishi lozim bo'lgan odob-axloq an'analari oila a'zolarining o'zaro muomala-munosabatlarini, intizomini, ularning ma'naviy va madaniy qiyofasini bir maromida ko'rib turadigan kundalik hayot yoki odob-axloq an'analari ham mavjud.

Kundalik turmushda an'analar oila a'zolari, ayniqsa, bolalarni oila tarbiyasiga odob-axloq qonun-qoidalariga moslashishga va ularning har bir daqiqasida nima qilish kerak, o'zini qanday boshqarish kerak, har bir harkat faol holda bo'lsa manfaatli bo'lishi lozimligini tushunib yetishga yordam beradi.

Har bir inson o'z hayoti davomida o'rgangan, o'zlashtirgan, uning kundalik zarurati ehtiyojiga aylangan xulq-odabi, odatlari, ko'nikmalar hosil qilish uchun zurur bo'lgan oilaviy odob-axloq yoki kundalik an'alarini yaratishdan iborat bo'lishi kerak. Chunki, bunday an'analarda oila a'zolarining o'zaro muomala-madaniyati xulq-atvor fazilatlari namoyon etiladi va ularning ruhiyatini atrofdagi kishilar bilan bo'ladigan munosabatini belgilab beradigan vorsitadir. Bunday

an'analar insonlarga xos bo'lgan ma'naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy urf-odatlar, an'nalar ta'lim-tarbiyaning manbalaridan biri hisoblanadi. Chunki, bu an'analarni bolalar ongiga singdirish orqali ularda ma'naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish bilan bir qatorda milliy qadriyatlarimizni hurmat qilishga va eng muhimi ana shu qadriyatlardan o'zlarining kundalik hayotlarida va faoliyatlarida qo'llay olish masalalari bilan mustahkamlab berishadi. Eng muhimi o'zbek xalqi axloqiy me'yorlarni xalq orasida turmush kechirish tartib-qoidalarini egallashga o'rgatadi.

O'zbek oilalarida bolalarga ota-onasi tomonidan buyuriladigan barcha ishlarni bajonidil bajarish va yakunlash loyihasini aytish millat an'anasiga kiradi. Agarda biror joyga borish kerak bo'lib qolsa, bolalar albatta ota-onalirining ruxsatini olib, keyin borishadi. Ayniqsa, kech bo'lganida bolalarning belgilangan vaqtda yotib uxlashlari o'zbek oilasiga xos bo'lgan yana bir xususiyatdir.

Albatta bolalarning yotishi oldidan ota-onalariga o'z navbatida, ota-onaliri o'z farzandlariga «Yaxshi yotinglar, deb» yaxshi kayfiyat tilashi ham katta tarbiyaviy ahamiyatga molik bir holat hisoblanadi.

Milliy an'analar ma'lum bir qonun yoki qoidalar va bajarilishi shart bo'lgan tartib sifatida, lekin har bir millatning ko'nikma va malaka ishonchiga aylangan tartib-qoida sifatida hikmatli axloqiy me'yoriy sifat qilib o'z ichiga oladi.

Ma'lumki, xalqning milliy an'analari ijtimoiy hayotda yetakchi rol o'ynaydi. Ular shu ravishda tiklangan amaliyotida tekshirilgan faoliyat va xatti-harakat usulini keyingi avlodga berish zarurati tug'ilganida vujudga keladi. An'analar yangi avlodni ijtimoiy muhitga bog'lash vazifasitni bajaradi. Shaxsni muayyan munosabatda kamol toptiradi.

An'analar ijtimoiy tajriba to'plashining mahsuli bo'lib, shaxs uchun ijtimoiy maqsadlar va qadriyatlar tizimi sifatida xizmat qiladi. Ana shu jihatdan

an'analardagi qadriyatlarning manbai olayotgan mustahkam e'tiqodiga aylantirish muammosi muhim muammolardar hisoblanadi.

Shunga ko'ra an'analarning asosiini tashkil qilgan g'oyalar, idealar yosh avlod shaxsida mujassamlashtirilishi lozim. Shu nuqtai nazardan an'analarning marosim shakli orqali rasm-rusumlari, urf-odatlari, bayramlar vositasida anglashiladigan hissiy ta'siri katta ahamiyatga ega.

Bularning hammasi ko'rsatmali hissiy tadbirlar sifatida an'analar tizimiga tarkibiy ravishda kiradi.

An'analarning ko'rsatmaliligi ulardagi g'oyalar va tushunchalarni o'zlashtirishga o'quvchilar, ayniqsa kichik maktab yoshidagi o'quvchilar xalq milliy an'analarning ko'rsatmali gavdalanishi orqali ulardagi g'oyalar mohiyatini chuqurroq o'zlashtirishadi.

Bahor kelishi bilan boshlanadigan qishloq xo'jalik ishlariga bog'liq marosim va odatlar «Naro'z», «Boychechak», «Lola sayli», «Gul bayrami», «Hosil bayrami» hunarmand va kasblar mehnatlarining xususiyatlariga ko'ra o'tkazildaigan tadbirlar kichik maktab yoshdagi bolalarni ma'naviy tarbiyalash ishlarida asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Biz o'zbekiston xalqi pedagogikasidagi xalq milliy an'analari deganda bolalarni an'anaviy axloqiy ruhda tarbiyalashdagi shakllangan va xalq og'zaki ijodi (ertaklar, maqollar va tez aytishlar) orqali avloddan-avlodga o'tib kelgan.

Xalq og'zaki ijodi asarlari badiiy jihatdan ijobiy tomonga ega ekanligi tinglovchilarning, ayniqsa bolalarning tushunishiga, idrok etishiga qulayligi tufayli xalq pedagogikasining eng muhim ko'p qamrovli va tajribaviy ta'siri g'oyat kuchli tarmog'i hisoblanadi.

Chunonchi, mahallalar xalqning ijtimoiy-iqtisodi, siyosiy va madaniy tajribalari asosida vujudga kelgan fikrlarni lo'nda, aniq va obrazli qilib ifodalovchi bir vositachi bo'lsa, nohiyalar xalqning hatti-harakatlari, donishmandligi axloq

qoidalari va vazifasini sodda sun'iy ibratli mazmundagi hikoyalardir. Ertaklar esa falsafa, axloq, din, badiiy tushuncha va xayolatga asoslangan xalq donishmandligi muhimdir. Shu bois ertakdagi to'qima voqyea-hodisalar silsilasida hayotning ma'naviy an'analari, urf-odatlar, axloq-odobning o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'ladi.

Rivoyat ham asosan ijtimoiy voqealarni, tarixiy hodisalarni, uydurmalar vositasida fosh etuvchi kichik hajmli hikoyalar bo'lib, ularda nazokat, aql va idrok, ishq va vafo, adolat va saxovatparvarlik qadrlanadi.

Ayniqsa, xalq og'zaki ijodining yirik namoyandasi hisoblangan dasturida umuminsoniy qadriyatlar mujassamlangan bo'lib, ularda xalqning turmush tarzi, axloq-odob, urf-odatlar, insoniy qadriyatlar mujassamlashgan bo'lib, insoniy va ma'naviy qadriyatlar-u diniy e'tiqodlari, orzu-umidlari, erk va ozodlik yo'lidagi mardonovor kurashlari, vatanparvarligi, sevgi, muhabbatga sadoqati, kelajakka ishonchi yaqqol ifodalangan. Buni «Alpomish», «Yakka», «Ahmad», «Rustamxon», «Murodxon», «Oysuluv», «Shirin bilan Shokir» kabi dostonlarda o'z ifodasini topgan insoniy qadriyatlar, urf-odatlar, xalqimizning bebaho yutug'i bo'lib hozirgi kunimizda ham o'z ahamiyatini yo'qotmay xizmat qilayotganini ko'rishimiz mumkin.

## **II bob**

### **Milliy an'analardan foydalanib boshlang'ich sinf o'quvchilarini nafosat va axloqiy tarbiyalash**

#### **1-§. Ajdodlarimizdan qolgan milliy an'analar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini nafosat va axloqiy tarbiyalash**

Oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlaydigan, milliy qadriyatlarning rivojini ta'minlaydigan, yangi avlodni dunyoga keltirib, uni ma'naviy-axloqiy inson, ya'ni barkamol qilib tarbiyalaydigan jamiyatning asosiy negizi hisoblanadi.

Oila tabiatning eng go'zal mo'jizalaridan biri bo'lib, u insonlarga xos "tabiiy biologik" iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy munosabatlarga asoslangan ijtimoiy birligidir.

Oilaning eng muhim vazifalaridan biri bolaga tarbiya berish hisoblanadi. Demak, oila tarbiya maskani bo'lib, aynan shu maskanda dunyoga kelgan farzand ota-onadan nafaqat irsiy xususiyatlarni, balki ulardagi hayotiy fazilatlarni, axloq-odob qoidalarini egallaydi.

Ota-ona o'rtasidagi o'zaro hurmat, mehr-oqibat, halollik, poklik, mehnatsevarlik, insonparvarlik kabi oliy darajali qadriyatlar ona suti, oila a'zolari mehri va namunasi bilan bola xulqi, hatti-harakati mazmuniga singib boradi. "Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan ko'p hikmatli so'zlar oila tarbiyasining mazmunini tashkil etadi.

O'zbek xalqining paydo bo'lishi tarixi qanchalik uzoqqa borib taqalsa, uning milliy an'analari, urf-odatlar, marosimlari ham shunchalik teran tarixiy ildizga egadir. Ular xalqning ehtiyojlari zaminida paydo bo'lib, shakllanib, sayqallanib o'z mazmunida shu xalqning orzu-o'ylari, istaklari, turmush tarzi, axloq normalarini mujassam etadi. Shuning uchun har bir xalq, millat ularni ko'z qorachig'iday avaylab asrashi, taraqqiy ettirishi kelgusi avlodlarga ma'naviy qadriyatlar sifatiga yetkazishi lozim.

Darhaqiqat, an'analar, urf-odatlar xalqning, millatning ma'naviyati, qadriyatlarning ajralmas qismidir.

Prezidentimiz I.A. Karimovning xatti-xarakatlari tufayli jamiyatni ma'naviy yuksaltirish, milliy qadriyatlarimiz ustida ishlash, ularning umrboqiyiligini ta'minlash borasida juda katta g'amxo'rliklar qilinmoqda, shu amalga oshirilayotgan ijobiy ishlarga ko'plab misollar keltirish mumkin. Bundan tashqari, bugungi kundagi mavjud marosimlar mazmuniga ham alohida e'tibor berishni taqazo etadi. Bu esa mamlakatimiz kelajagini, yoshlarni milliy qadriyatlarimiz vositasida ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi.

Mustaqillikning xalqimizga baxshida etgan buyuk saodatlaridan biri uning o'z tarixini teran o'rganishiga yaratib bergan ulkan imkoniyatidir. Kommunistik mafkura zamonida Amir Temurga noxolis munosabatda bo'lishdi, uning faoliyatiga adolat bilan yondashmaslik, asl haqiqatga zid qarashlar hukmron edi. Sohibqiron davrini manbalar asosida o'rganib chiqqan V. Bartoldday olim dunyoga mashxur saltanat qo'rgan ulkan davlat arbobi, jahondagi davlatlar bilan ham do'stlikni, ham tijoratni rivojlantirish uchun tinimsiz elchilar yuborgan, elchilar qabul qilgan, ilm-fan homiysi bo'lgan, shaharlar-u bog'lar yaratgan, muhtasham saroylar (bu binolar bugun ham savlat to'kib turibdi) qurdirgan, bunyodkor va kuragi yerga tegmagan sarkarda bobomizni tap tortmay «ilmi yo'q, savodi yo'q» deyishgacha borgan, ammo bu da'vosini biron dalil bilan isbotlayolishmagan. Ko'pchilik olimlar, tarixchilar ham shunday g'arazli yo'l tutgan, kechmish hodisalarni, tarixiy xaqiqatni soxtalashtirgan, ularning shunday yondashuvlari kishida, albatta, nadomat tuyg'usini uyg'otadi. Ular xatto Amir Temur va uning murakkab davri haqida qayta-qayta tekshirilgan faktlar asosida insof bilan yozilgan G'iyosiddin Alining «Hindiston g'azovati kundaligi», Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma», Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» kabi mu'tabar asarlarini (bularning dastlabki ikkitasini Amir Temurning o'zi buyurib yozdirgan va o'qigan, nazardan o'tkazgan) ortiqcha maqtovlarga to'la, madhiyabozlikka ko'milgan kitoblar deb hisoblashgan edi va hokazo. Xalqimiz

ana shunday tahqirlarga chidab keldi. Mustaqilligimizga yigirma ikki yil to'lgan shunday qutlug' kunlarda ana shu kechmishni esdan chiqarmasligimiz lozim.

Istiqlol bizga erkinlik berish barobarida tariximizni, buyuk bobolarimiz qismatini, shonli o'tmishimizni yuqoridagidek nohaq tajovuzlardan, noto'g'ri baho berishlardan himoya qildi va bu juda mustahkam qo'rg'on vazifasini bajarmoqda. Biz buni birgina sohibqiron Amir Temur bobomiz taqdiriga bo'lgan munosabatdan yorqin tasavvur qila olamiz. Amir Temur tarixi yolg'iz bir odam tarixi emas, bus-butun millat, demakki, jahon tarixidir.

Ozod va hur O'zbekistonda Amir Temur shaxsini idrok etish, anglash, ulug'lash, shu munosabat bilan buyuk kelajagimizga ishonchimizni yuksaltirish yo'lida mustahkam tamal toshlari qo'yildi. Qutlug' yigirma ikki yillik arafasida bir ortga qayrilib, eslaydigan voqealar bor: 1993-yilda Toshkentda, 1996-yilda Samarqandda va Shahrisabzda sohibqironga haykallar o'rnatildi. Amir Temur tavalludining 660 yilligi munosabati bilan 1996-yil O'zbekistonda «Amir Temur yili» deb e'lon qilindi. «Amir Temur» ordeni ta'sis etildi, Xalqaro Amir Temur jamg'armasi tashkil topdi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi qad ko'tardi.

1996-yili Parijda, YuNESKO qarorgohida «Temuriylar davrida ilm-fan, madaniyat va maorifning gullab-yashnashi» ko'rgazmasining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Unda ozod O'zbekiston Prezidenti nutq so'zladi. Bir zamonlar buni tasavvur ham qilib bo'lmas edi. 1996-yil 24-oktyabr kuni Toshkentda jahonning turli mamlakatlaridan taniqli olimlar qatnashgan «Amir Temur tavalludining 660-yilligiga bagishlangan xalqaro ilmiy konferensiya» ish boshladi. Xuddi shu yili Amerika Qo'shma Shtatlaridagi Vashington universitetida qutlug' sanaga bag'ishlab «Amir Temur oyligi» o'tkazilib, Amerika va o'zbek olimlarining sohibqiron haqidagi ma'ruzalari tinglandi...

Sohibqiron haqidagi haqiqatlarni yangidan idrok etish zamon talabi va zaruratiga aylanmoqda. Bu borada olimlar, adiblar, rassomlar, san'atkorlar, umuman ziyolilar jonbozlik ko'rsatib, o'zlarining ulug bobomizga, tariximizga bo'lgan mehru-muhabbatlarini, izzat-ikromlarini namoyon etishmoqda.

Yaqinda madaniy xayotimizda shoyoni diqqat hodisa ro'y berdi. Sohibqironning 675-yillik tavallud to'yi arafasida Yurtboshimiz taklifiga ko'ra Amir Temur qalamiga mansub «Temur tuzuklari» kitobi mukammal holda, yuksak sifat bilan yangitdan chop etildi. Xalqaro Amir Temur jamg'armasi va O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayxon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti tomonidan nashrga tayyorlangan kitob O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning «Milliy davlatchiligimiz tarixini mumtoz namunasi» nomli maqolasi bilan ochiladi. Ushbu nodir yodgorlikning ulkan ahamiyatiga to'xtalar ekan, Yurtboshimiz shunday yozadi: *«Ishonchim komilki, yoshlarimiz bu kitobni mehr qo'yib, tushunib, chuqur anglab o'qisa, ularning qalbida milliy g'urur yuksaladi, o'zining qanday buyuk zotlarning avlodi ekanini yanada chuqurroq his etib, hayotning har qanday sinov va qiyinchiliklarini yengishga qodir insonlar bo'lib voyaga yetadi...»*<sup>1</sup>.

Amir Temur haqida chindan ham ko'zga ko'rinarli ulkan ishlar amalga oshirildi, bu haqda baralla aytaolamiz. Lekin hali qilinishi kerak bo'lgan ishlarimiz undan ko'proq ekanligi ham bor gap.

Fikrimizcha, olimlaru adiblar, ilmiy jamoatchilik oldida ayrim vazifalar ko'ndalang bo'lib turibdi. Bulardan biri - o'zbek davlatchilik tarixini yana ham chuqurroq o'rganish yulida o'zbek xalq etnogenezi tarixini yaratish masalasi oldimizda turibdi. Bir necha yillar avval ziyolilar tomonidan bu masala ko'tarilgan va bu yo'lda ayrim qadamlar tashlangan edi ham. Albatta, ayrim darsliklar yozildi (A.Askarov). Lekin hanuz o'zbek xalqining kelib chiqish tarixi - etnogenezi haqida olimlar guruhi tomonidan asosli, fundamental tadqiqot yaratilgani yo'q. Albatta, masalaning murakkab jihatlaridan ko'z yumish mumkin emas, biroq, ilmning oldida hal qilib bo'lmaydigan muammo yo'qligi ko'nglimizni umidlantiradi. Zukko va qilni qirq yoradigan iste'dodli olimlarimiz bor. Salohiyatli yosh olimlar yetishib kelmoqda. Bu - quvonarli hol. Manbashunos olim Shamsiddin

---

<sup>1</sup> Karimov I. A. «Xalqimizning yo'li – mustaqillik, ozodlik va tub islohotlar yo'lidir». «Milliy davlatchiligimiz tarixini mumtoz namunasi» maqola . - T.: «O'zbekiston», 1996-y.

Kamoliddinning «Sharq» nashriyotida (2006) chop etilgan rus tilidagi «O'rta Osiyoning qadimgi turk toponimiyasi» nomli tadqiqoti asl manbalarga asoslanib, teran yozilganligi, ishonchli dalillarga boyligi, quruq da'volardan yiroqligi bilan o'quvchi diqqatini tortadi. O'zbekiston Fanlar akademiyasi va mamlakatning boshqa ilm dargohlari olimlari birgalikda bu muammoni hal qilishga kirishsalar maqsadga muvofiq bo'lardi. Mustaqillikka erishgan xalqimiz fanning turli sohalaridagi so'nggi yutuqlarga asoslangan, teran ilmiy tadqiqotlarga suyanan holda yaratilgan o'z etnogenez tarixini, albatta, bilishi kerak.

## **2-§. Mustaqillik yillarida shakllangan milliy an'analar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini nafosat va axloqiy tarbiyalash**

Insonning ma'naviy dunyosi keng va ko'p qirrali. U oilada, san'atda, munosabatda, kishilar bilan muloqatda, ko'cha-kuydagi hatti-harakatlarni o'z ichiga oladi. Agar ana shu qirralardan birorta bo'g'inni tushib qolsa, bundan odamning o'ziga ham, jamiyatga ham ma'lum darajada zarar yetadi. Insonning dunyo qarashini, dinini, ichki va tashqi madaniyatini tarbiyalash tugalmas jarayon hisoblanadi. U odamning birinchi qadami oilada, bolalar bog'chasida va maktabda beriladi va butun umri bo'yi davom etadi. Xalq milliy an'analari asosida, ya'ni ko'rishganda, salomlashish, uzoq safar oldidan oq yo'l tilash, qaytganda hol-ahvol so'rash, mehnat qilib turganda "hormang" "bor bo'ling" deyish, shuningdek, keksalarga hurmat intizomlik, nochor ahvoldagi kishilarga yordam berish odatlari azaliy ta'rixiy an'analarga kiradi.

Oilada ota-onalar o'z farzandlariga yuqorida keltirilgan insoniy fazilatlarga o'rgatuvchi an'alarimizni xalq og'zaki ijodidan, shuningdek pand-nasihat, ibrat, namuna ko'rsatish orqali tarbiyalab borsalar maqsadga muvofiq bo'ladi. Salom-alik hamma zamonlarda ulug'lanib kelgan so'zlardan hisoblanadi. Bu so'z zahirida olam-olam ma'no yotadi. Salomlashish, salomiga alik olish tarixiy an'alarimizdan sanalib kelingan. Qadimda o'zini hokisor qilib yuruvchi, boylikni mujassamlovchi, doimo ishi ketidan quvgan bir kishi bor ekan. Kunlardan bir kun u bir olimning shuhratini eshitib, ziyoratga bormoqchi bo'libdi. Qo'lida

hech narsasi bo'lmagani uchun yo'lda bir oz rayhon topib tuhfa sifatida olim oldiga qo'ydi, tiz cho'kib qo'lidan o'pdi.

Olim uning salomiga alik olmadi va e'tibor ham bermadi. Ilmu tolibning dili og'ridi, bir chekaga borib indamay o'tiravaerdi va o'ziga o'zi dedi: "Bu olim ilmig'a mag'rurlanib ketibdi. Bir oz o'tiraychi, qani nima gap ekan?, shunga qarab ish tutaman!" – deb o'ylabdi ichida.

U shunday hayol bilan o'tirar ekan nogoh eshik ochilib, bashang kiyingan bir kishi kirib kelibdi. Orqasidan esa tugun ko'targan xizmatkori namoyon bo'libdi. Olim irg'ib turib o'rnidan turdi. Salomiga alik oldi, ikki qo'lidan tutib to'rga o'tkazdi va quyuq hol-ahvol so'rab ketdi. G'ulom qo'lidagi tugunini olim qo'lga berdi. Olim:

- Xush kelibsiz. Sizni ko'rishdan behad xursandman, - deb mehmondorchilikning butun qonun-qoidalarini joyiga qo'yib, ziyofat qildi. So'ng barcha shogirdlari kitoblarni ko'tarib kelib, uning atrofiga o'tirdilar. Halim boy bilan olim atrofida o'tirdilar. Halim boy bilan olim atrofida suhbat qizib borarkan, ilm-u tolib bo'lmish hokisor kishi o'ziga-o'zi: "Bu olim haqiqatdan ham beodob" – dedi-da o'rnidan turib, olimning ro'parasiga o'tirdi va unga dedi: "Ey, olim kishi, mushkul bir masalaga javob bersangiz. Siz bugun ilm-u fozillikni davo qilmoqdasiz, sizning fikringizcha, salom necha xil bo'ladi?"

Olim:

-Bir xil bo'ladi, salom-alik qilish barcha kimsalarga vojibdir - dedi.

Ilm-u tolib unga:

- Yo'q sizning nazaringizda salom ikki xil bo'ladi. Siz o'zingizning gapingizga qarshi chiqmoqdasiz! – dedi.

Olim unga o'qrayib:

- Bu gaplarni qayerdan olding, - dedi.

Ilm-u tolib davom etdi:

- Siz salom-alikda boy bilan kambag'al o'rtasida farq bor, deb bilasiz. Men bundan bir necha daqiqa ilgari oldingizga kelib, salom berdim, qo'limda hech

narsa yo'qligini ko'rib, alik olmadingiz. Bir oz vaqt o'tmay yoningizga badavlat kishi kirib keldi. Xizmatkorning qo'lida tugunini ko'rdingiz, salomiga alik oldingiz, o'rningizdan turib, to'rga o'tqazdingiz. Salomga alik amri vojib, degan so'zingizga qarshi chiqdingiz! Donolar kitobida: "Birov sizga salom bersa, uning salomidan ko'ra yaxshiroq qilib alik oling" deyilgan axir. Siz ishingizni boylik topish uchungina o'qigan ekansiz! Bizdek bechoralarni shuning uchun ham xor tutdingiz.

O'tirganlar u kishining gaplari haq ekanligini tasdiqlab, bosh ko'tarmadilar. Ilm-u tolib gapini davom ettirib, dedi: "Inson uchun mehmondan azizroq hech narsa yo'q. Men sizning uyingizga mehmon sifatida keldim. Siz insonlar odatini ham lozim ko'rmadingiz! Kitoblarda: "Har kim mehmonni e'zozlamasa u odam emas" deyilgan. Yana bir yerda: "Mehmonga ochiq yuz va shirin so'z bilan munosabatda bo'lish, yuz yillik toat-ibodatdan yaxshiroq" deyilgan.

Siz ilmingizdan mag'rurlanib yon-atrofingizdagi har xil kitoblarni yig'ib, boylik to'plash yo'liga kiribsiz. Yonveringizga shuncha kitobni yig'ib olib, ammo undagi so'zlarga amal qilmasangiz bundan nima naf?!

Ilm-u tolibining so'zlarini eshitgan odamlar unga ofarin aytdilar. Olim esa qizarganicha o'tirar, nima deyishini bilmas edi.

So'ng g'uldirab:

- Ey, birodar, nega menga bunchalik yopishib olding, axir men nima gunoh qildim? - dedi

Ilm tolibi dedi: "Sizni ilmiga amal qilmagan desam, gap tushunmaydigan ham ekansiz. Shuncha keltirgan dalillarim hali ham sizga ta'sir qilmayapti, barcha kitoblarda faqir va bechora kishilarga ko'mak qiling deyiladi. Siz buni aksini qildingiz. Biz bechora va hech narsasiz kishilarni xor tutdingiz. Ilm sizdek kishiga hayfdir".

Uning gaplari haq ekanini anglagan, ishini boylik topish asosi qilib olgan kishining uzr so'rashdan o'zga chorasi qolmadi. Xato qilganiga iqror bo'ldi. Ilm tolibi esa bunday kishidan ilm o'rganish nomunosib deb, o'z yo'liga ravona bo'ldi.

Bunday o'zida tarixiy milliy an'analarimizni olg'a surgan hikoya, ertak, rivoyatlarni bolalarga oilada, bog'chada va maktablarda o'rganishning natijasi besamara bo'lmaydi.

Oila bilan maktab o'rtasida chuqur hamkorlik bo'lgandagina bolalar tarbiyasiga alohida e'tibor bo'ladi. Agarda bola maktabda o'qituvchisining qoshida nazoratida tursa-yu, uyda ota-ona bee'tibor bo'lsa, bolada noto'g'ri tarbiyaning ildizlari barq ura boshlaydi. Hamkorlikda o'rnatilgan tarbiya bolaning kelajakda yetuk kamolga yetgan shaxs sifatida shakllanishiga turtki bo'ladi.

Oilada o'rnatilgan tarbiya bolaning kelajakda yetuk kamolga yetgan shaxs sifatida shakllanishiga turtki bo'ladi.

Bolalarning yetuk shaxs sifatida shakllanishida milliy an'analarimizning rolini ham nazardan chetda qoldirmasligimiz zarur. Bunda an'analarning quyidagi turlari:

- badiiy-estetik
- oilaviy milliy an'analar;
- ixlosmandlik an'analari;
- mehnat an'analari asosiy vosita bo'lib xizmat qilishi tabiiydir.

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarni milliy an'analar vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda oila bilan maktab hamkorligi barkamol inson tarbiyasidagi muhim omillardan biridir. Maktabdagi o'quv tarbiyaviy ishlarning yuqori saviyada bo'lishi o'quvchilarning tarbiyalanganligi darajasi ota-onalarga bog'liqdir.

1. Ota-onalar jamoasi orqali.
2. Ota-onalar bilan yakka-yakka ishlash orqali.

Pedagogikada bir gap bor: «Bolani to'g'ri tarbiyalash uchun uni obdan o'rganmoq kerak». O'qituvchi tarbiyaviy ishning muvoffaqiyati ko'p jihatdan uning bolalar ichki dunyosiga chuqur singib kirishiga, ularning kechinmalari hamda hulq-atvorini tushunishga bog'liqdir. O'quvchining qanday o'y bilan yashayotganligi, uning qiziqish va moyilligi, irodasining o'ziga xosligini o'rganish, uning qalbiga mumkin qadar ishonchli yo'l topish demakdir.

Men ham o'z faoliyatimda o'quvchilarim hulq-atvorini tushunishga harakat qilaman. Tarbiyasi og'ir o'quvchilarga ko'proq alohida e'tibor beraman. Sinfda kutubxona tashkil qilganman. Kutubxonada «Odobnoma», «Qobusnoma», «Hadislar», «Oz-oz o'rganib dono bo'lur» kabi va boshqa kitoblar ham kutubxona javoniga qo'yilgan. Chunki, kishilik tarixi yaratgan ma'naviy boyliklar ichida donishmandlar pand-nasihatlari, o'gitlari alohida ahamiyatga ega. Ularning zaminida odoblilik, xalqparvarlik, ma'rifatparvarlik g'oyasi yotadi.

Mehnat faoliyatida el-yurtga muhabbat, poklik, halollik, to'g'rilik, rostgo'ylik, insoniylik kabi sifatlar yotadi, targ'ib qilinadi, dilozorlik, xudbinlik, yalqovlik, egrilik, baxillik, shafqatsizlik kabi salbiy xislatlar qoralanadi.

Biz o'qituvchilar «bolalarni ilimli, odobli, go'zal xulqli qilib yetishtirish ota-onaning burchi», deb o'ylamasdan, ularning har bir harakatini ko'z oldimizda tutishimiz, xushmuomala, jamiyatning yetuk kishilari bo'lib yetishishlari uchun astoydil ishlashimiz lozim. Buning uchun o'quvchilarga muomala odobini chuqur o'rgatishga harakat qilishimiz kerak. O'qish darslarida, darsdan tashqari vaqtlarda ko'plab kitoblar, ro'znomalar-y oynomalardan foydalanib borish kerak.

Alisher Navoiyning 2 sinfda o'rganiladigan «Yolg'onchi» masalasiga diqqatimizni qaratamiz.

«Yolg'onchi» masalida yolg'onchilik qoralanadi, aldamchilik kishi obro'ini to'kadi, shunga o'xshash hayotiy voqealar keltiriladi. Yolg'onchilik yomon odat ekanligi tushuntiriladi. Keyin savol va topshiriqlar yordamida suhbat o'tkaziladi.

O'qituvchi savol beradi:

Nima uchun uyiga o't tushgan kishi «qutqaring» deb yolvorsa ham, hech kim yordamga kelmadi?

O'quvchi javobi: «Chunki u kishi doimo yolg'on gapiradi, yolg'onchilik bilan odamlarni aldaydi. Shuning uchun uyi yonib ketayotganda qutqaring deb dod-voy qilganda ham odamlar, u aldayapti, deb o'ylab yordamga kelmaydilar.

Savol beriladi:

Nima uchun odamlar yolg'onchining rost so'zini ham yolg'on, deb o'yladilar?

Javob: "Yolg'onchi kishi yolg'onni ko'p gapirgani uchun odamlar uning rost so'zini ham yolg'on, deb o'ylaydilar".

Savol:

«Garchi yordam bermadi hech senga el,

Boshqadan emas, o'zingdan o'pka qil» misralarning mazmunini aytib bering.

Javob: "Alisher Navoiyning bu misralarida agar odamlar senga yordam bermasa, bunga o'zing aybdorsan, deydilar".

Suhbatdan keyin men o'quvchilarning masal yuzasidan olgan bilimlarini yakunlab, quyidagicha mustahkamlayman. Yolg'onchilik ham kishini xalq, el-yurt oldida obro'sizlantiradi.

Yolg'onchi kishi odamlar e'tiboridan qoladi. Rostgo'ylik, to'g'rilik kishi uchun eng yaxshi fazilatdir.

Alisher Navoiy masalda aldamchilikni qoralab, rostgo'ylikni olqishlagan, kishilarni ayniqsa yoshlarni rostgo'y bo'lishiga undagan.

O'quvchilarga axloqiy tarbiya berib borishda o'qish darsida biz ko'proq darslikdan foydalanimiz. Darslikdagi mavzularning ko'pi odob-axloq, vatan va vatanparvarlik haqida. Odob-axloqqa doir maqolalarni, she'rlarni, matnlarini uchratamiz. Shu maqolalar, she'rlar orqali biz o'quvchilarga axloqiy tarbiya berib boramiz.

Boshlang'ich sinf o'qish darsligiga e'tibor beradigan bo'lsak, axloqiy tarbiyaga oid juda ko'p matnlar berilgan. 1-sinf o'qish kitobida o'quvchilarga axloqiy tarbiya berishga oid matnlar berilgan. Masalan, 2013-yilda «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati tomonidan umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun chiqarilgan "O'qish kitobi" darsligida (Mualliflar: T. G'afforova, Ye. Shodmonov, G. Eshturdiyeva) 77ta matn, shyer, rivoyat, topishmoq, tez aytishlar o'rin olgan bo'lsa, ularning aksariyati nafosat va

axloqiy tarbiyaga aloqasi bor. Nafosat va axloqiy tarbiyaga to'g'ridan-to'g'ri quyidagi matnlar daxldor: "Amir Temur" (21 bet), "G'azal mulking sultoni" (23 bet), "Alisherning yoshligi" (25 bet), Non isi" (27 bet), "Ona allasi" (38 bet) va h.

39-betdagi «Mehribon onajonim»<sup>1</sup> she'rini o'qiymiz.

Juda ham a'losiz, oyijon,  
Juda ham donosiz, oyijon,  
Siz meni qo'zim, deb sevasiz,  
Nur to'la ko'zim, deb sevasiz,  
Oyijon, oyijon, oyijon.  
Siz meni barchaga yaxshilab,  
Quchasiz o'rgilib, erkalab.  
Shu aziz boshimni silaysiz,  
Menga baxt, omonlik tilaysiz,  
Oyijon, oyijon, oyijon.

Po'lat Mo'min

Bu she'r orqali biz o'quvchilarda mehribonlik hislatini shakllantiramiz. Mehribonlik ham axloqiy sifatlardan biridir.

19-betdagi «Ruxsat so'rash odobi» berilgan undosh harflar tagiga chiziladi.

Darsda o'qituvchingizdan biror narsani so'rashni istasangiz qo'lingizni ko'taring. O'qituvchi ruhsat bersa, o'rningizdan to'ring va savolingizni ayting.

Darsda o'tirish odobi birinchi sinfdan boshlab yaxshi o'rgatib borilsa, bolalar ham shu axloq normalariga o'rganib qoladilar va rioya qiladi.

28-betdagi

### **Yaxshi bola**

Sevgan do'sti – kitob, oftob  
Qoidasi axloq-odob

---

<sup>1</sup> G'afforova T., Ye. Shodmonov, G. Eshturdiyeva. O'qish kitobi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik, - T.: "Sharq", 2013-y., 127 b.

Maqtanishning hech o'zi yo'q,  
Gaplarida «sen» so'zi yo'q.

Obid Rasul

Bu shyer orqali o'quvchilarga kitob haqida, uning afzalliklari haqida aytiladi.

Ko'p kitob o'qigan bola axloqli-odobli bo'ladi. Odobli bola ko'p maqtanmaydi. «Sen» so'zidan ko'ra «siz» so'zini ko'proq ishlatadi, deb o'quvchilarga tushuntiriladi.

32-betda maqollar berilgan.

1. Rahmat olgan omondir.

La'nat olgan yomondir.

2. Va'daga vafo mardning ishi.

Maqollar orqali o'quvchilarga rostgo'ylik, va'daga vafodor bo'lish xislatlari singdiriladi.

Xulosa qilib aytganda oila va maktab hamkorligi bolalar tarbiyasida juda muhimdir. Chunki endigina hayotga qadam qo'yayotgan murg'ak qalbning to'g'ri yo'l tanlashga oila va maktab poydevor bo'lib xizmat qiladi.

### **III bob**

#### **Sinfdan va maktabdan tashqari ta'lim-tariya jarayonida boshlag'inch sinf o'quvchilarini nafosat va axloqiy tarbiyalash**

##### **1-§. Sinfdan tashqari ishlarning ma'naviy tarbiya berishdagi o'rni**

Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarga ta'lim berish bilan bir qatorda ularni sinfdan va maktabdan tashqari faoliyatini tashkil qilish bilan ham barkamol insonni tarbiyalashdagi ma'daniy–ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishadi.

Insonning insoniyligi uning ma'naviy olamining tiniqligi va yuksakligi bilan o'lchanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni ma'naviy olamining yuksalishida sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni to'g'ri yo'lga qo'yish kerak. Maktab milliy madaniyat, milliy til, milliy an'analar, urf–odatlar va qadriyatlarimiz asoslarini o'rgatadigan maskandir.

Davr taqazosi bilan biz sal bo'lmasa o'z milliy tilimiz, urf–odatlarimiz, an'analarimiz, madaniyatimiz va tariximizni, ma'naviy merosimiz va qadriyatlarimizni unitayozgan edik. Endilikda xalqimizning boy, serjilo madaniy tarixiy merosini, urf–odatlarini o'rganishda maktabda olib boriladigan ta'lim va tarbiya ishining mazmuni, tarbiyaviy tadbirlar ma'naviy tarbiyaning kamol topishiga olib kelmoqda.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar o'tkazish jarayonida milliy ma'daniyatning durdonalari, urf–odatlarimiz, rasm-rusumlarimiz, tashqi va ichki qiyofamiz, muomilamiz, yurish turishimiz eng yaxshi foydali an'analarimiz haqida ham tushuncha berishga o'rgatishga, tegishli ko'nikma va malakalarni egallashga, namuna olishga o'rgatib borish lozim. Bizning boy ma'daniy, milliy merosimiz bu kungi tarbiyachi uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Buyuk allomalarimizning milliy masalalar bo'yicha ular yaratgan darslik va asarlari muhim o'rin egallaydi.

Maktablarda o'tilayotgan "Odobnoma" fan sifatida o'qitishimiz tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda alohida ahamiyatga ega. Bu borada olimlarimiz O. To'rayeva, T.Qurbonov va Sh.Turanovlar bilan hamkorlikda yaratgan

“Odobnoma” dastur va o’quv qo’llanmalari, S. Nishonovning “Ma’naviyat dasturlari”, U. Mahkamovning “Axloq-odob saboqlari”, A. To’rayevaning “Tarbiyaviy darslarni o’tish”, O. Hasanboyevning “Tarbiyaviy shlarni o’qitish”, O. Hasanboyevning “Tarbiyavish ishlarni tashkil qilish metodikasi” kabi kitoblari va boshqa mualliflarning yaratgan “Odob saboqlari” kabi dasturlar va o’quv qo’llanmalar tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligini oshirish va milliy tarbiyani mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda boy omil kichik maktab yoshdagi o’quvchilarda milliy g’urur, sharqona muloqot odobi, ma’daniy, diniy g’oyalarga to’g’ri munosabatda bo’lish o’zbek san’ati, xalq yodgorliklarini tushunib va ardoqlashi kabi insoniy fazilatlarni shakllantiradi.

Ustoz o’qituvchining bilish darajasi sharqona fikr yurita olishi bilan harakatning birligi sinf o’quvchilarining o’rganish va ularning ijobiy fazilatlarini takomillashtirish, salbiy xislatlarini yo’qotishga imkon beradi.

Mustaqil diyorumizda birinchi marta tarbiyaviy ishlarni hisobga olgan holda sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning milliy asoslarini hisobga olgan holda “Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar” buyruqnomasi ishlab chiqarildi. Bir guruh olimlar va O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi Vazirligi xodimlari tomonidan ishlab chiqilgan “Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar yo’riqnomasi” ham tarbiyaviy ishlarning nazariy va amaliy jihatdan to’g’ri rejalashtirish imkonini yaratadi.

Har bir insonning atrofini o’rab turgan vositalar: oilasi, ota-onasi, san’at, adabiyot va hokazolar tarbiyalaydi. O’quvchi yoshlarning rivojlanish jarayonini boshqarib borish kerak.

Insonning biologik millat asosini tashkil qiluvchi o’zini tarbiyalash va tarbiyaning birligini ta’minlagan holda uning shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta’sir etadigan muhitdan himoya qilishi zarur. Tarbiyaning shakli sifatida asrlar davomida shaxsning har tamonlama kamolga yetuvchi g’oyasi asos bo’lib keladi. Shaxsning har tamonlama kamolga eltuvchi, uning ayrim qirralari yoki xislatlarini,

muloqotini, jismoniy, axloqiy va estetik qarashlari yig'indisini o'z ichiga oladi. Insonparvarlik axloqiy me'yorlarini shakllantirishni (mehribonlik, bir-birlarini tushunadigan, shafqatlilik, irqiy va milliy kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik, nohaqlik kabi tarbiya choralari) yo'lga qo'yish lozim.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy jarayonida ma'naviy tarbiya berish shakllari:

- tarbiyaviy (miqdoriy) tadbirning maqsadi, mazmuni va uning xarakteriga mos bo'lishi, tarbiya ishlarining ta'limiy, tarbiyaviy va rejalashtiruvchi yo'nalishini yaxlit amalgam oshirish va h.

O'quvchilarda axloqiy fazilatlarni tarbiyalashda unga rahbarlik qilishning mazmun, shakl va usullar birligini ta'minlash, uning natijasini hisobga olish uslubiyati ta'lim-tarbiyaning birligini yaxlit amalgam oshiradi.

- tarbiya vositasi hisoblangan xalq og'zaki ijodi namunalari maqol, naql, matal, ertak, hikmat, rivoyat, an'ana amaliy san'atdan foydalanish.

- sharq mutafakkirlarining ma'daniy merosi, pandnomalari, bitiklari, yozma yodgorliklari, xalq kitoblari, urf-odatlaridan foydalanish.

Ma'naviy tarbiya kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni barkamol bo'lib yetishishiga yordam beradi.

Sinfdan tashqari ishlarni olib borishda xalq pedagogikasidan axloq tarbiyasi alohida o'rin egallaydi.

Har bir xalq, elat, jumladan o'zbek xalqi ham axloq qonun-qoidalarini yaratdi va u insoniylik asosi hisoblendi. Misol uchun "Olim bo'lish oson, odam bo'lish qiyin" maqolini olaylik. Unda insonga bo'lgan munosabat yorqin ifodalangan. Xalq tasavvurida olim bo'lishga nisbatan haqiqiy odam bo'lish muhimdir. Shu sababli ham qadimdan insoniylik yosh avlodni go'zal axloqiy qilib tarbiyalashda asosiy mezon hisoblangan va u tarbiyaning asosi sifatida hozirda ham davom ettirilmoqda.

Insoniylik o'z tarkibida insonning eng yaxshi axloqiy xususiyatlarini, ya'ni odamlar o'rtasida o'zaro yaxshi munosabatda bo'lish, o'zaro do'stlik ("Kuchli bo'lay desang do'stlar orttir"), ota-onaga sadoqatlik ("Ota oldidan o'tma, odob

oldidan ketma”), mehnatsevarlik (“Mehnating – ziynating”), diyonatlik (“Dili pokning - ishi pok”, “Halol ishla, harom ishlama”) kabi fazilatlarni qamrab oladi. Xalqimiz bolalarning yoshligidan ularga ana shu go’zal fazilatlarni tarbiyalashga ahamiyat berib kelgan.

Sinfdan tashqari ishlarda ma’naviy tarbiyani ravnaq toptirishda xalqimizning ilg’or fikrlari, shoirlarning axloq-odob haqidagi asarlaridan keng foydalanilgan. Bu asarlar o’quvchilarga eng yaxshi insoniy fazilatlarni tashkillashtirish va rivoj toptirish, qabihlik, razillik kabi illatlardan nafratlanish hissini uyg’otishda muhim vosita bo’lib xizmat qiladi.

Xalq og’zaki ijodi asarlarida mehnatsevarlik, do’slik, do’sstga muhabbat, sadoqat, vatanparlik, mardlik, soflik, rosgo’ylik kabi eng yaxshi insoniy fazilatlarni tarbiyalaydi, insonni ma’naviy go’zallashtiradi, uni ezgulikka faqat yaxshilik qilishga, el–yurt manfaatini uchun xizmat qilishga chorlaydi. Xalqimiz asrlar mobaynida ma’naviy fazilatlar haqida o’z qarashlarini ilmiy va badiiy asarlarda odob–axloq namunalarini shakllantirgan. Bu normalarning har birini atroflicha asoslab chiqqanlar. Maktab shunday bir joyki, u yerda milliy madaniyat, milliy urf–odatlar va qadriyatlarimizning asosini o’rgatadi.

Davr taqazosi bilan biz sal bo’lmasa o’z milliy tilimiz, urf–odatlarimiz, an’analarimiz, madaniyatimiz va tariximizni, ma’naviy merosimiz va qadriyatlarimizni unitayozgan edik. Endilikda xalqimizning boy, serjilo madaniy tarixiy merosini, urf–odatlarini o’rganishda maktabda olib boriladigan ta’lim va tarbiya ishining mazmuni, tarbiyaviy tadbirlar ma’naviy tarbiyaning kamol topishiga olib kelmoqda.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar o’tkazish jarayonida milliy ma’daniyatning durdonalari, urf–odatlarimiz, rasm-rusumlarimiz, tashqi va ichki qiyofamiz, muomilamiz, yurish turishimiz eng yaxshi foydali an’analarimiz haqida ham tushuncha berishga o’rgatishga, tegishli ko’nikma va malakalarni egallashga, namuna olishga o’rgatib borish lozim. Bizning boy ma’daniy, milliy merosimiz bu kungi tarbiyachi uchun muhim vosita bo’lib xizmat qiladi.

Buyuk allomalarimizning milliy masalalar bo'yicha ular yaratgan darslik va asarlari muhim o'rin egallaydi.

Maktablarda o'tilayotgan "Odobnoma" fan sifatida o'qitishimiz tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda alohida ahamiyatga ega. Bu borada olimlarimiz O. To'rayeva, T.Qurbonov va Sh.Turanovlar bilan hamkorlikda yaratgan "Odobnoma" dastur va o'quv qo'llanmalari, S. Nishonovning "Ma'naviyat dasturlari", U. Mahkamovning "Axloq-odob saboqlari", A. To'rayevaning "Tarbiyaviy darslarni o'tish", O. Hasanboyevning "Tarbiyaviy shlarni o'qitish", O. Hasanboyevning "Tarbiyavish ishlarni tashkil qilish metodikasi" kabi kitoblari va boshqa mualliflarning yaratgan "Odob saboqlari" kabi dasturlar va o'quv qo'llanmalar tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligini oshirish va milliy tarbiyani mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda boy omil kichik maktab yoshdagi o'quvchilarda milliy g'urur, sharqona muloqot odobi, ma'daniy, diniy g'oyalarga to'g'ri munosabatda bo'lish o'zbek san'ati, xalq yodgorliklarini tushunib va ardoqlashi kabi insoniy fazilatlarni shakllantiradi.

Ustoz o'qituvchining bilish darajasi sharqona fikr yurita olishi bilan harakatning birligi sinf o'quvchilarining o'rganish va ularning ijobiy fazilatlarini takomillashtirish, salbiy xislatlarini yo'qotishga imkon beradi.

Mustaqil diyorimizda birinchi marta tarbiyaviy ishlarni hisobga olgan holda sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning milliy asoslarini hisobga olgan holda "Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar" buyruqnomasi ishlab chiqarildi. Bir guruh olimlar va O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi Vazirligi xodimlari tomonidan ishlab chiqilgan "Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar yo'riqnomasi" ham tarbiyaviy ishlarning nazariy va amaliy jihatdan to'g'ri rejalashtirish imkonini yaratadi.

Har bir insonning atrofini o'rab turgan vositalar: oilasi, ota-onasi, san'at, adabiyot va hokazolar tarbiyalaydi. O'quvchi yoshlarning rivojlanish jarayonini boshqarib borish kerak.

Insonning biologik millat asosini tashkil qiluvchi o'zini tarbiyalash va tarbiyaning birligini ta'minlagan holda uning shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta'sir etadigan muhitdan himoya qilishi zarur. Tarbiyaning shakli sifatida asrlar davomida shaxsning har tamonlama kamolga yetuvchi g'oyasi asos bo'lib keladi. Shaxsning har tamonlama kamolga eltuvchi, uning ayrim qirralari yoki xislatlarini, muloqotini, jismoniy, axloqiy va estetik qarashlari yig'indisini o'z ichiga oladi. Insonparvarlik axloqiy me'yorlarini shakllantirishni (mehribonlik, bir-birlarini tushunadigan, shafqatlilik, irqiy va milliy kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik, nohaqlik kabi tarbiya choralari) yo'lga qo'yish lozim.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy jarayonida ma'naviy tarbiya berish shakllari:

- tarbiyaviy (miqdoriy) tadbirning maqsadi, mazmuni va uning xarakteriga mos bo'lishi, tarbiya ishlarining ta'limiy, tarbiyaviy va rejalashtiruvchi yo'nalishini yaxlit amalga oshirish va h.

O'quvchilarda axloqiy fazilatlarni tarbiyalashda unga rahbarlik qilishning mazmun, shakl va usullar birligini ta'minlash, uning natijasini hisobga olish uslubiyati ta'lim-tarbiyaning birligini yaxlit amalga oshiradi.

- tarbiya vositasi hisoblangan xalq og'zaki ijodi namunalari maqol, naql, matal, ertak, hikmat, rivoyat, an'ana amaliy san'atdan foydalanish.

- sharq mutafakkirlarining ma'daniy merosi, pandnomalari, bitiklari, yozma yodgorliklari, xalq kitoblari, urf-odatlaridan foydalanish.

Ma'naviy tarbiya kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni barkamol bo'lib yetishishiga yordam beradi.

Sinfdan tashqari ishlarni olib borishda xalq pedagogikasidan axloq tarbiyasi alohida o'rin egallaydi.

Har bir xalq, elat, jumladan o'zbek xalqi ham axloq qonun-qoidalarini yaratdi va u insoniylik asosi hisoblandi. Misol uchun "Olim bo'lish oson, odam bo'lish qiyin" maqolini olaylik. Unda insonga bo'lgan munosabat yorqin ifodalangan. Xalq tasavvurida olim bo'lishga nisbatan haqiqiy odam bo'lish muhimdir. Shu sababli ham qadimdan insoniylik yosh avlodni go'zal axloqiy qilib tarbiyalashda

asosiy mezon hisoblangan va u tarbiyaning asosi sifatida hozirda ham davom ettirilmoqda.

Insoniylik o'z tarkibida insonning eng yaxshi axloqiy xususiyatlarini, ya'ni odamlar o'rtasida o'zaro yaxshi munosabatda bo'lish, o'zaro do'stlik ("Kuchli bo'lay desang do'stlar orttir"), ota-onaga sadoqatlik ("Ota oldidan o'tma, odob oldidan ketma"), mehnatsevarlik ("Mehnating – ziynating"), diyonatlik ("Dili pokning - ishi pok", "Halol ishla, harom ishlama") kabi fazilatlarni qamrab oladi. Xalqimiz bolalarning yoshligidan ularga ana shu go'zal fazilatlarni tarbiyalashga ahamiyat berib kelgan.

Sinfdan tashqari ishlarda ma'naviy tarbiyani ravnaq toptirishda xalqimizning ilg'or fikrlari, shoirlarning axloq-odob haqidagi asarlaridan keng foydalanilgan. Bu asarlar o'quvchilarga eng yaxshi insoniy fazilatlarni tashkillashtirish va rivoj toptirish, qabihlik, razillik kabi illatlardan nafratlanish hissini uyg'otishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Xalq og'zaki ijodi asarlarida mehnatsevarlik, do'stlik, do'stga muhabbat, sadoqat, vatanparlik, mardlik, soflik, rosgo'ylik kabi eng yaxshi insoniy fazilatlarni tarbiyalaydi, insonni ma'naviy go'zallashtiradi, uni ezgulikka faqat yaxshilik qilishga, el-yurt manfaatini uchun xizmat qilishga chorlaydi. Xalqimiz asrlar mobaynida ma'naviy fazilatlar haqida o'z qarashlarini ilmiy va badiiy asarlarda odob-axloq namunalarini shakllantirgan. Bu normalarning har birini atroflicha asoslab chiqqanlar. Maktab shunday bir joyki, u yerda milliy madaniyat, milliy urf-odatlar va qadriyatlarimizning asosini o'rgatadi.

Darsdan tashqari tarviyaviy tadbirlarda madaniyatimiz durdonalari, urf odatlarimiz, rasm-rusumlarimiz, muammolarimiz, yurish-turushimiz, yaxshi an'analarimiz haqida tushuncha berish bizning asosiy vazifamizdir.

Ayniqsa o'quvchilar orasida muamala madaniyati, nafosat va axloqiy tarbiyaga oid tadbirlar orqali ish va hunarga o'rgatish, tarbiyalash kyechiktirib bo'lmas vazifalardan biridir.

Maktabda milliy ma'daniy an'analarni qayta tiklash va rivojlantirish, bolalarni chin inson qilib ma'naviy ruhda tarbiyalab, ular qalbiga ajdodlarimizdan qolgan meros mazmunini singdirish pedagogik faoliyatimizning dolzarb muammosining bosh mazmunidir.

Sinfdan tashqari ishlarni amalgam oshirishda ta'lim-tarbiya ishi boshlanishidan qancha mukammal berilsa, shuncha har tomonlama yetuk shaxs shakllanadi.

Yuqori sinf o'quvchilarining bilimi zamon talablari darajasida bo'lmog'i uchun quyi sinfdan olgan ta'lim-tarbiyasi muhim o'rin egallaydi. Shuning uchun har bir bola boshlang'ich sinflarida tashkil etilayotgan tayyorgarlik darslarida faol qatnashishlari darkor.

## **2-§. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni milliy an'analar ruhida tarbiyalash**

Sinfdan tashqari tarviyaviy tadbirlar ham bu borada yetakchi o'rin egallaydi. Bunda o'qituvchining fikrlarini teranligini, zabonining serqirrali, ma'naviylicini, kuchliligini va uni o'quvchilarda shakllanishiga e'tibor bermog'i kerak. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni milliy an'analar ruhida tarbiyalashda "Navro'z" bayramiga oid tomoshalar o'tkazishning ahamiyati kattadir.

Kuz mavsumida "Mehrjon", "Qovun sayli" va bir qator milliy bayramlar o'tkaziladi. Tabiat bayramlarining eng muhim tomoni shundaki, ularga oldindan tayyorgarlik ko'riladi. O'quvchilar she'r yod oladilar, o'ziga kiyim tayyorlarydilar. O'qituvchi esa bolalar tayyorgarligini ko'rib, o'tkaziladigan bayramni rejalashtiradi. Eng avvalo berilgan she'rlar mazmunini bayram mazmuni bilan mos bo'lishi kerak.

"Mehrjon" bayrami ko'p yillik tarixga ega bo'lishiga qaramay bir o'z o'zgarishlar kiritilgan holda o'tkaziladi. Lekin hozirda bu bayram milliy bayramlar qatori tabiat bilan bog'liq bo'lgan, bolalar tarbiyasi bilan bog'liq bo'lgan, bolalarning eng sevimli bayramlaridan biridir. Bu bayramni o'tkazishdan maqsad bolalarda "Mehrjon" bayrami haqida tasavvur hosil qilishi, kuzgi yig'im- erim,

ob–havo haqidagi she’r va qo’shiqlar orqali o’quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, milliy iftixor hissini tarbiyalash, ona tabiatga mehr–muhabbat hissini kuchaytirishdan iboratdir.

Bayram o’tkazish uchun maktab zali, sinf xonasi yoki sport xonasi olinib, kuzgi gullar bilan bezatiladi. Bu bayramga albatta ota–onalar, maktab rahbarlari, o’quvchilar va tengdoshlari taklif qilinadi.

Bayramni o’tkazish tartibi.

Bir o’quvchi hammani bayramga taklif qiladi:

Odamlar–u, odamlar,  
Bog’da bitgan bodomlar  
Eshitmadim demanglar,  
Eshitganlar qolmanglar,  
Bugun bizning maktabda,  
“Mehrjon” bayrami bo’layapti.  
O – o – ha, O – o – ha!  
Hammaga hayqiramiz,  
Bayramga chaqiramiz.  
Tezroq–tezroq kelinglar,  
Yuguringlar, yotmanglar,  
Bayramga kech qolmanglar.  
Ehe – he, he – he!  
Bugun bizda shodiyona,  
Bu kuzimiz bayrami,  
Barakat to’kin kuz,  
“Mehrjon” bayramimiz.

O’quvchilar karnay-sunray chalib sahnaga chiqadilar.

Salomim so’lim–so’lim,  
Ko’ksimdadir o’ng qo’lim.  
Eng avvalo mehmonlar,

Assalomu-alaykum.

Bobomiz Abu Rayhon Beruniyning aytishlaricha, “Mehrjon” bayrami qadim–qadimdan o’tkazilib kelingan. Kuz bizga in’omlar bilan mehrjon ato qilgan.

G’ir–g’ir shamol yeladi,  
Buni hamma biladi.  
Yuguradi yelga yuz  
Marhamat! Oltin kuz!  
Kuz keldi bizlarga oltin kosada  
Sharbat ola keldi, bol ola keldi.  
Savat–savat qilib shirin mevalar,  
Omborlar liq to’la don ola keldi.

«Mehrjon» deganlari,  
Dehqonlarning bayrami.  
Mo’jizakor, lalmikor,  
Bog’bonlarning bayrami.  
Maydonlarda, yo’laklarda,  
Odamlar qator–qator,  
Qovun, tarvuz to’p–to’p,  
Mevalarning bari bor.  
Polizda noz–ne’matlar,  
O’zlarin ko’z– o’z etar.  
Bolalarga navbatda,  
Xislarlarin so’zlatar.

”Barglar raqsi”

Polizlarda qovun, tarvuzlar,  
Dalalarda don-dunlar.  
Bog’larda mevalar-u,  
Paykallarda paxtalar,

Xirmonlarga to'kilar.

Tarvuz:

Beqasam to'n tarvuzlar,

Bozorlarga yuguring.

To'yib yesin odamlar,

Qolmasin =ech g'ubor.

Qovun:

Navlarim rang-barang,

"Shakarpalak", "Besvoldi"

Bilmaganlar bizni,

Uy shipiga osvoldi.

Qovoq:

Ismimni derlar kadi,

Qadrimni bilgan ekadi.

Quloch ochib ketaman,

Men tomgacha yetaman.

Piyoz:

Mushdekkina toshdayman,

Archsang ko'zing yoshlayman.

Na oyoq na qo'lim bor.

Lekin qat-qat to'nim bor.

Sholg'om:

Bemor bo'lsang berib naf,

Tumovni etarman daf.

Yana ko'p xizmatim bor.

Derlar meni dorivor.

Deyman: o'zim yakkaman,

Rediskaga akaman.

Sabzi:

Men sabzivoy bo'laman,  
Vitaminga to'laman.  
Suvsiz, quyosh nurisiz.  
Sarg'ayaman so'laman.  
Odamnmng ko'zi qoshiman,  
Men sevgan yurakning.  
Otadik quyoshiman.  
Kartoshka:  
Barglarim taram–taram,  
Meni deydilar kartoshka.  
Goh non o'rnida nonman,  
Dardinga men darmonman.

Karam:

Barglarim taram–taram,  
Meni deydilar karam.  
To'ning ko'p deb, tashlama,  
Mensiz pishmas dimlama.

Turp:

Ko'rsin mayli birov deb,  
Men pishmasam qirov yeb,  
Shunda kirar ta'm–maza,  
Kulcha bo'lib ovora,  
"Turpi" deya quvoning,  
Meni olib quvoning.

"Mehrjon" bayramiga bug'doy boshqalari olib kelinadi. Bug'doy xirmonlari bilan azizdir.

Bug'doy:

Boshoqlar, boshoqlar,  
Oltinsimon boshoqlar.

Qir dalalar ko'ksiga,  
Dur-u marjon boshhoqlar.  
Sep baraka bo'liqlar,  
Barg'ri donga to'liqlar.  
Barcha noz-u ne'matga  
Mo'tobardir ulug'dir.  
Quvonib xirmonidan,  
Totib shirin nonidan.  
Sevib oltin boshhoqni,  
El qadrlar jonidan.  
Bolalar bug'doy haqida sahnalashtirgan ertakni ijro etishadi.

A. Juda qadim zamonda,  
Zarband degan tomonda.  
Qirda bug'doy o'sibdi,  
Boshhoqlari to'libdi.  
Yerlar boshin silabdi,  
Ko'ngil bir do'st tilabdi.  
Chumchuqqa do'st bo'libdi,  
Uni izlab ketibdi.

B: Debdi: –Do'stim chumchuqvoy,  
Meni deydilar bug'doy.  
Ekib yaxshi qarasang,  
Bo'laman naq nasibang.

Ch. Chumchuq ishim ko'p debdi.  
Bug'doyni terib yebdi.  
Bug'doy ketibdi qochib,  
U qolibdi og'zin ochib.  
So'ng qo'yga duch kelibdi,  
Do'stlik izhor qilibdi.

B. Nam tuproqqa meni ek,  
Saqlagin qorachiqdik.  
Menga har kuni sev sep,  
Pishsam maza qilgin, yeb.

A. Shunda u mayli debdi,  
Keng adirga ekibdi.  
Tezda bug'doy unibdi,  
Ko'k maysa ko'rinibdi.  
Nafsini tiyolmabdi,  
Boshoq tutmagan bug'doy,  
Yeb qo'ymoqchi qo'y.

B. Ey, voy.

A. Bu ham do'st bo'lmadi, deb,  
Baxtim ochilmadi deb,  
Ketibdi bug'doy qochib,  
Qo'y qolibdi og'zim ochib.  
Do'st izlabdi, yuribdi,  
Odamlarni ko'ribdi.

B. Sizlar meni ekingiz,  
Har kuni suv sepingiz.  
Mehringizdan unarman,  
Chunki sizlar hunarmand.

A. Odamlar do'st bo'libdi,  
Shunda ko'ngli to'libdi.  
Odamlar uni ekibdi,  
Qarab, suv sepibdi.  
Bug'doy o'saveribdi,  
Nom qo'yilib unga don,  
Sap— ariq oltin xirmon ,

Insonlarni boqibdi,  
Shirinligi yoqibdi.  
Tegirmonga un qilib  
Yopishibdi non qilib,  
Shundan beri bug'doy non,  
Odam bilan qadrdon.

Qo'shiq": "Non yopganda"

Biz nonni iste'mol qilar ekanmsiz, bobodehqonning mehnatini his qilishimiz, e'zozlashimiz darkor.

Non aziz, eng halol,  
Non serob, bermalol.  
Bo'lmasin non uvol,  
Uvog'in terib ol.  
Non rizqu-ro'zimiz.  
Non obro' yuzimiz,  
Asli chin so'zimiz,  
Bo'lmasin non uvol,  
Uvog'in terib ol.

"O'g'lim nonniyerga tashlama".

Hurmati zo'r, qadri zo'r nonni,  
Zamirida tog'dik beqiyos,  
Mehnati bor bobodehqonning.

Boqqa kirdim shaftoli, uzum,  
Sharbatlarga, bolga kiribdi.  
Oltin mevalar– , yoqut olamalar  
Uzilib tagiga tushibdi

Anor:

Buz hali tugunchamiz,  
Zich bo'lib tugulganmiz.

Ne–ne dardlarga qarshi,  
Shuning uchun tug'ilganmiz  
Donimiz bor qip–qizil.

Olma:

Bohordagi gulimdan,  
Xol qilar yosh–qarilar.  
Xursand uchib ketishib,  
Bol yig'adi arilar.  
Vitaminga, temirga,  
Po'chog'im ham juda boy.  
Har kun maqtab yesangiz  
Sog' yursiz misli toy.

Limon:

O'zi sariq–ku,  
Olma emas u.  
Hid sochar har yon,  
Ma'zasi nordon.  
Kesib, ezib ichiladi,  
Uni moshim oson  
Oltindan misol.

Uzum:

Yuz donamiz bir boshdir,  
Har donamiz o'zimiz.  
Kiyimimiz rang barang,  
Qizil, sariq yuzimiz.

“Savatim” qo'shig'i

Dalalarda tongda ko'k bo'lib,  
Yulduz rosa boqar tikilib,  
Meni muz deb qaraydi kulib.

### Oq tolalar

Ming bor tovlanar,  
Oq tolalar, oltin tolalar.  
Paxtalarim tez terib halol,  
Qanday aziz, etmaysiz uvol.  
Oq tolalar, ming tolalar  
Ming bor tovlanar  
Oq tolalar, oltin tolalar

### “Paxta” raqsi

Kuz hosilini tezroq yig’ib,  
Olish uchun bobodehqon tinmay,  
Harakat qiladi – chunki kuzda,  
Kunlar asta sekin salqin,  
Shoshib boradi. Yomg’ir har kun  
Tez– ez yog’ib turadi.  
Juda go’zal bizning kuz,  
Kuzga bo’lsin ko’p olqish.  
Hosilimiz bo’ldi mo’l,  
Rahmat senga oltin kuz.

Bayramlarning sarasi,  
“Mehrjon” bayrami.  
Hosillarning bayrami,  
Hosil kuning muborak.  
Aziz bobodehqonim,  
Quyosh bobo taftidan,  
Sarg’yadi ko’katlar.  
Barg tukadi daraxtlar,  
Hosil yig’ib olinar,

Qishga zamin solinar.

Raqs “Xarazmcha”

Bayramimiz gul g’uncha,

Siz ham charchadingiz ancha.

Yana bayram bo’lguncha,

Xayr do’stlar, ko’rishguncha.

Bir soatlik dars ishlanmasi.

Mavzu: Amir Temur

Maqsad: a) Ajdodlarimizdan Amir Temur haqida ma’lumot berish.

b) Ajdodlarimiz kabi ilmi, o’qimishli, dono bo’lib yetishishga undash.

v) egallagan bilimlarni umumlashtirish.

Darsning turi: Aralash

Darsning tipi; Tushuntirish, suhbat, ko’rsatmalilik.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism:

a) O’quvchilar bilan salomlashish.

b) O’quvchilar davomatini aniqlash.

v) O’quvchilarning darsga hozirligini tekshirish.

II. O’tilgan mavzuni mustahkamlash.

Mavzuni mustahkamlash maqsadida o’tilgan mavzu bo’yicha savol-javob o’tkaziladi.

III. Yangi mavzu bayoni.

Doskada buyuk sarkarda, olim va shoh bo’lgan ajdodimiz ismlari yozib qo’yilgan bu ismni topish uchun siz ushbu krasvordni topshirishingiz kerak.

|  |  |  |  |  |
|--|--|--|--|--|
|  |  |  |  |  |
|--|--|--|--|--|

O'quvchilar o'ylanib, ushbu so'zni topadilar va portret yoki rasm tagiga yozib qo'yishadi.

O'quvchilar bu darsda o'zbek xalqining oldin o'tgan avlodi, ya'ni ajdodlarimizning hayoti bilan tanishadi.

Qadimdan o'zbek xalqining buyuk farzandlari bo'lgan. Ular o'zlarining aqlari bilan dunyo xalqlarini lol qoldirishgan. Shuning uchun chet elliklar o'zbek xalqining hayotiga qiziqishadi. Ular buyuk ajdodlarimiz haqidagi ma'lumotlarni o'rganadi.

Demak, sizlar ham ajdodingiz haqidagi ma'lumotlarni bilishingiz zarur. Biz ajdodlarimizdan bo'lgan Amir Temurning hayoti haqidagi ma'lumotga ega bo'lamiz.

O'qituvchi portretga qarab Amir Temurning rasmini izohlab berishlarini o'quvchilardan so'raydi.

O'quvchilar savolga javob beradilar.

O'qituvchi Amir Temur haqida ma'lumot beradi.

Amir Temur haqida haqidagi ma'lumotlardan, rivoyatlardan o'quvchilarga so'zlab beradi.

Endi darslikning 21 betidagi "Amir Temur" haqidagi matnni diqqat bilan tinglaymiz:

"Sohibqiron Amir Temur bobomiz buyuk davlatga asos solgan. Ona yurtimiz Turkiston diyorini butun dunyoga tanitgan. "Kuch- adolatda" so'zlari uning uzugida hamisha yarqirab turgan.

Bobomiz millat, Vatan sharafini hamma narsadan baland qo'ygan. "Olamni aql va ehson bilan obod etibmen", - degan. U bunyodkor, ilm-fan homiysi va kuchli sarkarda bo'lgan. Zukko va donishmand Amir Temur betakror siymodir".

Noma'lum so'zlarni aytasiz. Lenta tasamaga yozib olingan matn o'quvchilarga qo'yib beriladi. O'quvchilar matnni kitobdan kuzatadilar. Tasmada ifodali o'qub berilgan matn eshittiriladi.

Lug'at ustida ishlash, "Adolat", "buyuk" so'zlar tushuntiriladi.

O'quvchilar bu so'zlar ishtirokida gap tuzadilar.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

Darslik bilan ishlash.

Darslikdagi Amir Temur matnini ochib, ko'rsatgich barmog'izni qo'yib ko'zating.

O'quvchilardan biriga matnning birinchi gapi o'qitiladi. Qolgan o'quvchilarning o'qish tezligini ifodalanishi tekshiriladi.

Ushbu rasmlar so'z bilan tushuntiriladi. Ushbu rasmlarni o'qituvchi "buyuk" so'zini qilgan vazifalari orqali ochib beradi.

"Temur tuzuklari"dan hikmat so'zlar keltiradi.

"Kuch - adolatdadir"

Amir Temurning ushbu gapining mazmuni ochib beradi. Adolatli bo'lgan kishi doim kuchli bo'ladi, deb xulosa qiladilar.

V. Uyga vazifa berish:

- Demak, Amir Temur qanday odam bo'lgan ekan?
- Olim, buyuk sarkarda, shoh bo'lgan.
- Buyuk sarkarda sifatida qanday ishlar bajargan?

Hikmatli so'zlaridan, "Temur tuzuklari"dan misol keltiring.

Keltirilgan tuzuklarning mazmuni tushuntirib beriladi.

Mavzu: Konstitutsiyamiz 21 yoshda.

Maqsad: 1. O'quvchilar ishtirokida bayram dasturini o'tkazish.

2. Ularni tarbiyaviy soat mazmunida konstitutsiyaning g'oyaviy mazmunini o'quvchilar onglariga she'rlar, qo'shiqlar orqali singdiriladi.

3. O'quvchilar bilimlarini rivojlantirish.

Ko'rgazmali qurollar:

Konstitutsiyaning rasmi.

I. Mashg'ulotning borishi:

- a) Saflantirish.
- b) Salomlashish.

## II. Asosiy qism.

Boshlovchi:

Xalqim madhini kuylayman bugun,  
Bu kun nasib etmish farzandlarga.  
Agar zig'irdyek bo'lsa xursand bulardim,  
Cho'lpon, Usmon Nosir, Fitratlaring ham.

### **Madhiya:**

Serquyosh, hur o'lkam, elga baxt, najot,  
Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh, mehribon.  
Yashnagay to abad ilmu-fan, ijod,  
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

### NAQORAT:

Oltin bu vodiylar - jon O'zbekiston,  
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!  
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,  
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag'ri keng o'zbekning o'chmas iymoni,  
Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot!  
Istiqlol mash'ali, tinchlik posboni,  
Haqsevar, ona yurt, mangu bo'l obod!

### NAQORAT:

Oltin bu vodiylar - jon O'zbekiston,  
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!  
Ulug' halq qudrati jo'sh urgan zamon,  
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Boshlovchi: 1992-yil 8-dekab kuni hozirgina siz kuylagan madhiyamiz qabul qilingan. Bu yil 2014-yil 8-dekabrda Konstitutsiyamiz qabul qilinganining 22 yilligini nishonlaymiz.

Bugun tarbiyaviy tadbirimiz “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 21 yoshda” mavzusiga bag‘ishlangan tadbirni ochiq deb, e‘lon qilaman.

Salomim so‘lim–so‘lim,  
Ko‘ksimdadir o‘ng qo‘lim.

Eng avvalo ustozlar,  
Assalom-u-alaykum!  
Bizni bayramga kelgan,  
Bolalar qadrin bilgan.

Qadrli mehmonlarga,  
Assalom-u-alaykum!

O‘quvchi:

Avvalo, rahmatdur onaga,  
So‘ng albatta otaga.  
Bizlarga yaratmish hayotni,  
Unutmang hech qachon ustozni.  
Sen o‘zbek xalqi farzandi,  
Istiqlol yurtning dilbandi.  
Vatanim g‘oyatda keng erur,  
Mehnatda qotsa ham suyaging.  
Hech yerga tegmasin kuraging,  
Chiniqtir sen mayliga tanni.  
Unutma hech qachon vatanni,  
Bolajaon sen doim suyuksan,  
Bilib quy iqboli buyuksan!

2 ta o‘quvchi “Konstitutsiya” kitobini olib chiqib, ushlab turadi.

Bir–birlariga mana mustaqillikning bu yil 22 yilligini nishonlaymiz.  
Qaragin, bayramlarimizning qo‘shaloqligini: Bugun konstitutsiyamizning 21 yilligini ham nishonlamoqdamiz. Ha, mustaqilligimizning sharofati bu!

O‘quvchi:

Sen qonunimsan,  
Sin iftixor, baxtim.  
Sin o'tmishim,  
Mazmuni vaqtning,  
Himoya uchun,  
Har bir moddang,  
To'g'riligidir,

Haqdir huquqim.

Ravshan Sobirovning "Askar" nomli qo'shig'iga 6 ta o'quvchi o'ynaydi.

2 ta o'quvchi birma– ir ushbu matnni ifodali o'qiydi.

1. Yer yuzidagi hamma mamlakatlarning o'z Konstitutsiyasi bor.
2. Madhiya, Gerb, Bayroq mamlakatning, o'z Konstitutsiyasi shu mamlakatning mazmunidir.
  1. Unda davlatning yo'nalishi, buguni va ertasi bosh qomusimiz bo'lgan Konstitutsiyamiz dunyoda eng maqqul, haqchil deb tan olingan.
  2. Unda O'zbekiston fuqarolarining jamiki orzulari o'z ifodasini topgan.
    1. Dunyoga kelgan chaqaloqdan tortib keksalargacha ularning tinchligi, sog'ligi nafaqasi kafolatlangan.
    2. O'zbekiston qonuniy davlatdir.
      1. Qonun hamma uchun barobardir.
      2. Konstitutsiyadan satrlar;  
Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.
        1. Har kim bilim olish huquqiga ega.
        2. Bugun umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi.
          1. Maktab ishlari davlat nazoratidadir.
          2. Konstitutsiyamiz 26 bob, 128 modda, 6 ta bo'limdan iborat.
            1. U 1992– il 8-dekabrda qabul qilingan

"Vatan" haqidagi qo'shiqni 4 ta o'quvchi o'ynab, ko'ylaydi.

## O'zbekiston

Yurtim senga she'r bitdim bu kun,  
Qiyosingni topmadim also.  
Shoirlar bor o'z yurtin butun,  
Olam aro atagan tanho.  
Ular she'ri uchdi ko'p yiroq,  
Qanotida kumush diyori.  
Bir o'lka bor dunyoda biroq,  
Bitilmagan dostondir bari.  
Faqat ochiz qalamim manim  
O'zbekiston vatanim manim.

Konstitutsiyaning qonuni bitta:  
Fuqorosin himoya qilish.  
Shunday yurtda qonun bor ekan,  
Hukmrondir tinchlik, totuvlik.

## **Xulosa**

Bugungi kunda xalq ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish, nafosat va axloqiy tarbiyaga bag'ishlangan tadbirlar saviyasini oshirish borasida qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Iqtidorli yoshlar tarbiyasiga g'amxo'rlik kuchaytirilmoqda. Joylarda ta'lim-tarbiyaning yangi tarmoqlari - litseylar, kollejlar, gimnaziya tashkil etildi. Kelajakda faravon yashashning asosi omillari va ijtimoiy sohadagi bilimdonlik, yuqori axloqiy fazilatlarga ega bo'lishga, chet tillarni o'rganishga, aniq fan sohasida qo'shimcha bilimlar olish uchun qayg'urayotganliklari quvonarli holdir. Ma'lumki ota-onada qanday hatti-harakat bo'lsa, bolada ham shu hatti-harakatni kuzatish mumkin. O'z navbatida ota-onalar o'z hayotlarining yaxshi daqiqalarini farzanlari tarbiyasiga bag'ishlashi, o'zlarining yaxshi tomonlarini o'g'il-qizlariga ko'rsata bilishlari kerak.

Ayniqsa ota-onalar ishdan tashqari ma'daniy dam olishga, bolalar tarbiyasiga, ularning qobiliyati va qiziqishlariga qarab sharoit yaratib berishga e'tiborini qaratishlari kerak.

Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarga ma'naviy tarbiyaning mujassamlashtirishda yordam beradi. Bolalarni darsdan so'ng 2–3 soat, haftada 2–3 marta maktabdan tashqari muassasalarga, ya'ni bolalar va o'smirlar sport maktablaridagi to'garaklarga jalb qilinsa, bu har bir o'quvchining o'zi uchun, dunyoqarashining shakllanish uchun, fikrlash doirasini kengayishi va ma'lum bir vaqtda aniq biron bir kasbni tanlash uchun mustahkam zamin tayyorlashga imkon beradi. Masalan, musiqa, rassomlik, o'lkani o'rganish, tikuvchilik kabi tugaraklarga qatnashib, ana shu orqali ular o'zining shaxsini kamolga yetkazishi mumkin. Garchi bola kelgusida shu kasb egasi bo'lmasa ham, to'garak orqali olgan sabog'i unga hayotda albatta o'z ifodasini ko'rsatadi.

Turkiston xalqlari tarixida inson hayoti uchun dasturiy amal, qo'lanma vazifasini bajargan pandnomalar, xalq kitoblari mavjud. Masalan, Kaykavusning "Qobusnoma", Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston", "Temur tuzuklari", "Shoh

Mashrab”, Navoiyning “Mahbub–ul qulub”, Kamolliddin Binoiyning ”Bahrom” kabi asarlari xalq o’rtasida juda mashhur bo’lgan.

Bu asarlar xalqning dunyoqarashini, ongini shakllantirishda axloqiy jihatdan tarbiyalashda ajoyib rol o’ynaydi.

Insonning ichki yoki ma’naviy olamini o’zgartirish, ongiga va vujudiga singib ketgan ko’nikmalardan xalos qilish maqsadli ish. Shuning uchun ham bu borada tinimsiz samarali ish olib borilmoqda, bizga tutilayotgan, endi olamga kelayotgan avlodda ma’naviy barkamollikni shakllantirishga asosiy e’tiborni qaratish kerak. Chunki, qayta tarbiya tarbiyadagi qiyinroq ish.

Tarbiya bilan ta’lim birin ketin kelmaydi, orqa yoki ketin ham kelmaydi, balki tarbiya va ta’lim yagona bir butundir. Insonning qo’lini oyog’idan ajratib bo’lmagandek ta’limdan tarbiyani ajratib bo’lmaydi. Asosiy maqsad - tarbiyalab turib ta’lim berish, ta’lim berayotib tarbiyashdir.

O’qituvchining boy va yuksak ichki ma’naviy olamga ega bo’lishi tarbiya uchun suv bilan havodek zarur. U o’z fanini chuqur bilishi va har bir mavzusini bolalar tarbiyasiga bo’ysundirishi, ya’ni mavzuning butun ichki tartibini bolaning ruhiga ta’sir qiladigan, uning tarbiyasiga ta’sir qiladigan misollar orqali olib borishi kerak.

O’quvchilar an’analарimiz, milliy qadriyatlarimizni anglab, o’zlashtirib olishlari uchun avvalo ularning o’zlari boshqalar bilan muloqatda milliy an’analар, qadriyatlardan foydalanish yo’llarini targ’ib etishda faol ishtirok etishlari kerak. Bunga erishishda muallimlar va ota-onalarning bu sohada yoshlarga namuna bo’lishi eng ma’qul yo’ldir. Bu ta’lim va tarbiyada benazir ko’rgazmalikdir. Katta yoshdagilar va ota-onalarning bu sohada yoshlarga namuna bo’lishi eng ma’qul yo’ldir.

Katta yoshdagilarning o’zlari namuna bo’lishi, o’quvchilarning milliy urf-odat, an’ana, umuminsoniy qadriyatlarni e’zozlaydigan bo’lishadi.

O’tmishda ota-bobolarimiz tarbiyada nasihat, tushutirish, rag’batlantirish, maqtash, namuna ko’rsatish, tanbeh berish usullaridan foydalanishgan. Zero

bolaga go'zal tarbiya berish uni baxt-saodatli bo'lishiga yordam beradi, yaxshi ishlari bilan ota-onalar va muallimlarini shodlantiradi. Bundan tashqari, bobolarimiz tanbeh berish, taqiqlash, majbur qilish, po'pisa qilish, qo'rqitish kabi usullaridan ham foydalanganlar.

Jamoa a'zolari bu usullarni qo'llashda axloq qoidalariga tayangan holda qilgan ishi, hatti-harakatining to'g'ri yoki noto'g'riligi haqida bolada ishonch hosil qilishga harakat qilganlar.

O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan amalga oshirayotgan siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy vazifalarini hal etish jamiyatning va undagi har bir insonning axloqiy va estetik jihatlariga bog'liqdir. Chunki, axloqli inson o'zining o'qimishliligi, odobliligi, ta'lim-tarbiya ko'rganligi bilan jamiyat ishlab chiqarishida, respublikamizning ijtimoiy va ma'naviy hayotda faol ishtirok etadi.

Vatanga, jamiyatga, xalqqa mehr-oqibatli, sadoqatli, vafodor bo'lgan yoshlar kerak. Shunday ekan har bir o'quvchi adolatparvarlik, odoblili, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, milliy g'urur, hunarmandli bo'lish, ezgulikka intilish kabi axloqiy fazilatlarni bir butun, yaxlit holatda o'zida mujassamlashtirishda milliy-madaniy an'analarimiz, qadriyatlarimiz yetakchi bo'lishi zarur.

#### Takliflar:

1. 1-sinf dan etiboran iqtidorli o'quvchilar tarbiyasiga g'amxo'rlikni kuchaytirish.
2. O'quvchilarning qobiliyati va qiziqishlariga qarab sharoit yaratib berish.
3. O'quvchilarni bolalar va o'smirlar sport maktablaridagi to'garaklarga jalb qilish.
4. O'qish darslari orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarini barkamol avlod qilib tarbiyalashda nafosat va axloqiy tarbiyadan foydalanish asosida ko'nikma va malakalar shakllantirish;
5. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini komil inson qilib tarbiyalash uchun nafosat va axloqiy tarbiyadan foydalanishni o'rgatish usul va yo'llari bo'yicha qo'llanma va tavsiyalar ishlab chiqish;

6. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'z Ona-Vataniga bo'lgan sadoqat tuyg'usi malakalarini shakllantirish usullarini aniqlash;

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

### **Prezident asarlari, davlat farmonlari va qonunlari**

1. Karimov I. A. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari". - T., "O'zbekiston", 1997-yil, 137-b.
2. Karimov I. A. "Ijobiy ishlarni oxiriga yetkazaylik". – T.: "O'zbekiston", 1994-yil, 28-bet.
3. Karimov I. A. "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q". - T., "Sharq", 1998-yil, 37-b.
4. Karimov I. A. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida".-T.: "O'zbekiston", 1990-yil.
5. Karimov I. A. "Buyuk kelajak sari". - T.: "O'zbekiston", 1992-y.
6. Karimov I. A. "Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori". -T., "Sharq", 1997-y.
7. Karimov I. A. "Bizdan ozod va obod Vatan qolsin". T.: «O'zbekiston», II tom,1996-y.
8. Karimov I. A. «Xalqimiznig yo'li – mustaqillik, ozodlik va tub islohotlar yo'lidir». T.: «O'zbekiston», 1996-y.
9. Karimov I. A. «Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari». T.: «O'zbekiston», 1996-y.
10. Karimov I. A. «Yuksak ma'naviyat - jamiyat taraqqiyotining asosi». T.: «O'zbekiston», 1998-y.
11. Karimov I. A. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch». T.: «Ma'naviyat» nashriyoti, 2008-y.
12. Karimov I. A. «O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida». T.: «O'zbekiston», 2011-y.
13. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. - T.: «O'zbekiston», 1992-y.
14. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», - T.: «O'zbekiston», 1997-y.
15. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, - T.: «O'zbekiston», 1997-y.
16. «Sog'lom bola yili» Davlat dasturi. - T.: «O'zbekiston», 2014-y.
17. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. -T "Fan", 2008-y.

### **Asosiy adabiyotlar**

1. Avloniy A. “Turkiy guliston yoxud axloq”, - T. “Me’ros”, 1993, 210 b.
2. Abu Ali ibn Sino hikmatlari, T.: “O’zbekiston”, 1998-y.
3. Ahmedov B., Aminov A. “Amir Temur o’g’itlari”. - T., “Navro’z” , 1992-y., 64-bet.
4. Beruniy Abu Rayhon. “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, - T. “Me’ros”, 1992, 376 b.
5. Jabborov A. “Ajodlar tajribasi”. - T., 1996, 37-43.
6. Javliyev T. “An’analar - hayot sabog’i”. - T. “O’zbekiston”, 1992, 90.
7. Kaykovus “Qobusnoma”, - T. “Me’ros”, 1992, 176.
8. Musurmonova O. “O’quvchilarni ma’naviy madaniyatni shakllantirish”. - T.: “Fan”, 1993.
9. Navoiy Alisher “Mahbub ul qulub”. - T., “G’.G’ulom nomidagi adabiyot va san’at”, 1983-yil, 11-det.
10. Ortiqov N. “Umuminsoniy qadriyatlar lug’ati”. T.: «O’qituvchi», 2005-y.
11. Otamurodov S. “Ma’naviyat asoslari”. - T., 2002-yil.
12. O’quvchi ma’naviyatini shakllantirish, - T.: “O’qituvchi”, 1999-y.
13. Raxmonov S. “Bolalarda madaniy ko’nikma va odatlarni tarbiyalash”, - T.: “O’qituvchi”, 1994-y.
14. Safo Ochil “Mustaqillik ma’naviyati- tarbiya asoslari”. - T. “O’qit”, 1995.
15. Sohibov A. “Prezident I.A.Karimov asarlarida ma’naviy-axloqiy tarbiya vorisligi muammosining yoritilishi”, Xalq ta’limi, 2-son, 2009-yil, T., 4-bet.
16. Sattor Mahmud. “O’zbek udumlari”. - T., “Fan”, 2005-yil.
17. Sinf rahbari ishini tashkil etish va rejalashtirish, - T.: “O’qituvchi”, 1999-y.
18. Tulinov J. “Qadriyatlar falsafasi”, - T., “O’zbekiston”, 1998, 335.
19. Temirova F., Nazarova S. “Jamiyat va qadriyatlar”. - T., “O’zbekiston”, 1992.
20. Xayrullayev M. M. “Farobiy” , - T.: “O’qituvchi”, 1991-y., 73-74 bb.
21. Yusuf Xos Hojib. “Qutadg’u bilig”. - T., “Yulduzcha”, 1990, 85-97.

22. Shayxova X., Nazarov Q. “Umuminsoniy qadriyatlar va ma’naviy kamolot”. - T, “O’zbekiston”, 1992, 6-7, 43-44.
23. Boshlang’ich ta’lim, №2, 2008-y, 26-27- betlar.

### **Darslik va o’quv qo’llanmalari**

1. G’afforova T., Ye. Shodmonov, G. Eshturdiyeva. O’qish kitobi. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik, - T.: “Sharq”, 2013-y., 127 b.
2. G’afforova T., Sh. Nurullayeva, Z. Mirzahakimova. O’qish kitobi. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik, - T.: “Sharq”, 2012-y., 175 b.
3. G’afforova M. «Ona tili» darsligi, 1-sinf, T.: «O’qituvchi», 2003-y.
4. G’afforova M. «Ona tili» darsligi, 2-sinf, T.: «O’qituvchi», 2003 y.
5. G’afforova M. «Ona tili» darsligi, 3-sinf, T.: «O’qituvchi», 2003-y.
6. G’afforova M. «Ona tili» darsligi, 4-sinf, T.: «O’qituvchi», 2003-y.
7. Haydarov A. Umuminsoniy qadriyatlar. - T.: «O’qituvchi», 2004-y.
8. Matchonov S., A. Shojalilov, X. G’ulomova, Sh. Sariyev, Z. Dolimov. O’qish kitobi. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik, - T.: “Yangiyo’l roligraf servis”, 2013-y., 238 b.
9. Mahkamov U. “Axloq-odob saboqlari”. - T “Fan”, 1994.
10. Tulinova Sh. “Milliy qadriyatlarning tarbiyaviy ahamiyati”. - T.: «O’qituvchi», 2003-y.
11. Umarova M., X. Hamroqulova, R. Tojiboyeva. O’qish kitobi. Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik, - T.: “Sharq”, 2012-y., 222 b.

### **O’quv-uslubiy adabiyotlar**

1. O’zbek pedagogikasi antologiyasi, - T.: “O’qituvchi”, 1995-y.
2. Boshlang’ich ta’lim, 5-son, 2000- yil, 27- bet.
3. Boshlang’ich ta’lim, 2-son, 2003- yil, 7- bet.
4. Xalq ta’limi, 2004-y, 6-son, 22- bet.
5. Boshlang’ich ta’lim, 2-son, 2005- yil, 37-bet.
6. Boshlang’ich ta’lim, 3-son, 2006- yil, 12-bet.
7. «Xalq ta’limi» jurnali, 6-son, 2014-y., 23-b.

8. Boshlang'ich ta'lim 2- son, 2008-yil, 26-27 betlar.
9. Boshlang'ich ta'lim 5- son, 2010-yil, 27-bet.
10. Boshlang'ich ta'lim 2- son, 2013-yil, 7-bet/
11. Xalq ta'limi 2014-yil, 1- son, 39-b.
12. Boshlang'ich ta'lim 2014, 2- son, 56-b.

**Elektron ta'lim resurslari va internet manbalari:**

1. [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)
2. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
3. http: [www.lib.psichology.narod.ru](http://www.lib.psichology.narod.ru)

## **Mundarija**

|                                                                                                                                      |    |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| Kirish.....                                                                                                                          | 3  |
| I bob. Boshlang'ich sinf o'quvchilarni nafosat va axloqiy tarbiyalashda o'qish darslaridan foydalanish .....                         | 12 |
| 1-§. Nafosat va axloqiy tarbiyaning yosh avlod ongiga singdirish yo'llari.....                                                       | 12 |
| 2-§. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini nafosat va axloqiy tarbiyalashda ajdodlarimiz namunasi.....                                    | 16 |
| II bob. Milliy an'analardan foydalanib boshlang'ich sinf o'quvchilarini nafosat va axloqiy tarbiyalash.....                          | 23 |
| 1-§. Ajdodlarimizdan qolgan milliy an'analar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini nafosat va axloqiy tarbiyalash.....            | 23 |
| 2-§. Mustaqillik yillarida shakllangan milliy an'analar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarini nafosat va axloqiy tarbiyalash..... | 28 |
| III bob. Sinfdan va maktabdan tashqari ta'lim-tariya jarayonida boshlag'inch sinf o'quvchilarini nafosat va axloqiy tarbiyalash..... | 35 |
| 1-§. Sinfdan tashqari ishlarning ma'naviy tarbiya berishdagi o'rni.....                                                              | 35 |
| 2-§. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni milliy an'analar ruhida tarbiyalash..                                                     | 35 |
| Xulosa.....                                                                                                                          | 59 |
| Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....                                                                                              | 62 |